Yorug‘likni moddalar bilan o‘zaro ta’sirini xarakterlovchi yo‘nalishni qo‘yilishi yorug‘likni elektro magnit nazariyasini tushunishdan keyin ma’lum bo‘ldi. Yorug‘lik tez o‘zgaruvchan elektro magnit maydonidan iborat ekanligi uni moddalar bilan o‘zaro ta’sirini aniqlashga imkon berdi.

Bunda ya’ni yorug‘likning elektro magnit nazariyasida, moddalarni xarakterlovchi fizikaviy kattaliklarni statik elektr va magnit maydonlarida o‘lchangan kattaliklar ishlatiladi.

Yorug‘likni elektro magnit nazariyasi vakuum uchun to‘g‘ri natijalar bergen holda konkret moddalar uchun prinsipial qiyinchiliklar va chegeralanishlarga olib keldi.

Bu nazariya yorug‘likni dispersiya hodisasini tushuntira olmadi Maksvelni uchun nazariyasi moddalarni sindirish ko‘rsatkichi n dielektrik kirituvchanligi  $\epsilon$ , magnit kirituvchanligi  $\mu$  o‘rtasida qudagicha bog‘lanish mavjud ekanligini ko‘rsatdi.

$$n^2 = \epsilon\mu \quad (1)$$

Tiniq muhitlar uchun  $\mu = 1$ . Shuning uchun

$$n^2 = \epsilon \quad (2)$$

Bunday tenglik tajribaga qarama-qarshi bo‘lib  $\epsilon$  va  $\mu$  faqat statistik maydonlarda o‘zgarmas kattaliklar deb qaralishi lozim, bunday qarama-qarshiliklarni yengish uchun elektron nazariyani qurish zarurati tug‘ildi. Elektron nazariya chegarasida atom va molekulalarni o‘ziga xos tuzilishga ega ekanligini hisobga olgan holda molekulyar optika hodisalarni umumiy ravishda tuShuntirish imkoniyati tug‘ildi.

Hozirgi paytlarda mumtoz tushunchalarga asoslangan elektron nazariyani chegaralangan ekanligi aniqlandi.

Mikroobyektlar atomlar va molekulalarni xarakterlovchi fizikaviy kattaliklar faqat kvant mexanikasi asosida to‘g‘ri hisoblanishi mumkin.

Molekulyar optik doimiyliklarni eng muhim xulosalari shundan iboratki optikada mumtoz modellarni qo'llash mumkin. Albatta mumtoz modellarni bir o'zi mikroobyektlarni atom va molekulalarni xarakterlovchi kttaliklarni hisoblash uchun yaroqsizdir.

Binobarin molekulyar optikaning mumtoz nazariyasi yarim emperik nazariya asosida qurilishi kerak, molekulyar optikada o'rganiladigan hodisalarini qisqacha ro'yxati quyidagidan iborat.

Yorug'likni izotrop va anizotrop muhitlardan qaytishi, sinishi, yutilishi, yorug'likni dispersiyasi, yorug'likni sochilishi va kuch maydonida joylashtirilgan moddani, mexanik maydondagi yorug'likni ikkilanib sinish hodisasi yorug'likni ultra tovush to'lqinlarida sochilishi va hokazolar. Molekulyar optikada bu hodisalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik aniqlanadi va o'rnatiladi. Bu hodisalarini barchasi u yoki bu o'lchamda molekulani eng muhim xossasini xarakterlovchi uning qutublanuvchanligi bilan aniqlanadi. Molekulani optik xossalarni aniqlashda uning spektridagi chastota va intensivlik kalit bo'lib xizmat qiladi. molekulyar optika asosida spektroskopiya yotadi. Moddada hosil bo'ladigan dielektrik kirituvchanlikni fluktuasiyasi yorug'likni sochilishiga olib keladi.


## MA'RUZA 2

### Mavzu: Qutublanuvchanlik va refraksiya

Bizga umumiy fizika kursidan ma'lumki, yorug'lik ikki muhit chegarasiga tushganda, yorug'likning bir qismi qaytadi, bir qismi esa sinadi.

Singan yorug'lik uchun quyidagi qoidani aytish mumkin. YA'ni, tushish burchagi sinusining sinish burchagi sinusiga bo'gan nisbat berilgan moddalar uchun o'zgarmasdir:

$$\frac{\sin \alpha}{\sin \beta} = n_{21} \quad (1)$$



Agar (1) ni vakuumga nisbatan olsak:

$$\frac{\sin \alpha}{\sin \beta} = n = \frac{c}{v} \quad (1')$$

Elektr kursidan bizga ma'lumki, agar moddalarni statik maydonga joylashtirsak, ularni dielektrik o'tkazuvchanligi o'zgarar edi, ya'ni ( $\epsilon$ ).

Demak, statik maydon dielektrik o'tkazuvchanlik doimiyligi bilan xarakterlanar ekan. YOrug'lik, elektromagnit maydon esa muhitning sindirish ko'rsatkichi ( $n$ ) bilan xarakterlanadi.

Elektromagnit maydon nazariyasiga asosan nurning to'lqin uzunligi katta bo'lganda:

$$n = \sqrt{\varepsilon} \quad \text{yoki} \quad \varepsilon = n^2 \quad (2)$$

Bu kattaliklar sindirish ko'rsatkichi hamda muhitning dielektrik o'tkazuvchanlik doimiysi makroskopik parametrlari hisoblanadi. Bunday parametrlardan tashqari muhitning mikroskopik parametrlari ham mavjud bo'lib, bu moddaning tashkil etuvchi zarralarning xususiyatlarini belgilaydi. Bunday mikroskopik parametrlardan biri bu qutblanuvchanlik ( $\alpha$ ) dir.

Bu kursning asosiy vazifasi moddaning makroskopik xususiyatlari bilan mikroskopik xususiyatlari orasidagi bog'lanishlarni xarakterlaydigan kattaliklarni topishdan iboratdir.

Buning uchun biz eng avval siyrak gazlarni qaraylik, qachonki bunday gaz molekulalari bir-biriga nisbatan juda katta masofada joylashsin.


Ana shunday gazlarni maydonga tushirsak, bu holda gaz molekulalari qutblanadi. YA'ni, polyarizatsiya hodisasi ro'y beradi hamda molekula maydon yo'nalihi tomon buriladi. Bu polyarizatsiyaning kattaligi ta'sir qilayotgan maydon kuchlanganligiga bog'liq.

Agar biz maydon kuchlanganligini  $\vec{E}$ , dipol momentini yoki polyarizatsiya vektorini  $\vec{p}$ , qutblanuvchanlik koeffitsientini  $\alpha$  bilan belgilasak, ular orasida quyidagi bog'lanish mavjud bo'ladi:

$$\vec{p} = \alpha \vec{E} \quad (3)$$

(3) formuladagi ( $\alpha$ ) molekulyar kattalik bo'lib, har bir molekulani qutblanuvchanligini xarakterlaydi yoki boshqacha aytganda  $\alpha$  bu maydon ta'siri ostida molekulyar elektr zaryadlarining siljuvchanlik qobiliyatini xarakterlaydi.

Demak, (3) formula bitta molekulaning maydon yo'nalihi bo'yicha hosil bo'lgan dipol momentini xarakterlar ekan. Dipol - bu zaryadlari bir-biriga teng bo'lgan va bir-biridan ma'lum masofada joylashgan (+) va (-) zaryadlardan iborat bo'lgan sistemadir.



Agar 1 sm<sup>3</sup> hajmdagi molekulalar soni ( $N$ ) ta desak, (3) quyidagicha bo'ladi:

$$\vec{P} = \vec{p}N = \alpha N \vec{E} \quad (4)$$

Ikkinci tomondan, bu elektr maydon elektr induksiyasi vektori bilan quyidagicha bog'langandir:

$$\vec{D} = \varepsilon \vec{E} = \vec{E} + 4\pi \vec{P} \quad (5)$$

(5) ni boshqacha yozsak:

$$(\varepsilon - 1)\vec{E} = 4\pi \vec{P} \quad (6)$$

(6) ni (4) ga asosan yozsak:

$$(\varepsilon - 1)\vec{E} = 4\pi N\alpha \vec{E} \quad (7)$$

Bundan:

$$(\varepsilon - 1) = 4\pi N\alpha \quad (8)$$

hosil bo‘ladi. (2) ni hisobga olib (8) ni yozsak:

$$(n^2 - 1) = 4\pi N\alpha \quad (9)$$

bo‘ladi. Agar :

$$(n^2 - 1) = (n - 1)(n + 1) \quad (10)$$

deb olsak, hamda gazlar uchun sindirish ko‘rsatkichini 1 ga yaqin desak, (10) ni quyidagicha yozish mumkin:

$$(n^2 - 1) = 2(n - 1) \quad (11)$$

(11) ni (9) ga qo‘ysak:

$$n^2 - 1 = 2(n - 1) \quad (12)$$

yoki

$$(n - 1) = 2\pi N\alpha \quad (13)$$

Bundan:

$$\alpha = \frac{n - 1}{2\pi N} \quad (14)$$

Bu formula orqali siyraklashgan gaz molekulalarini qutblanishini aniqlash mumkin.

Bizga ma’lumki, tashqi va ichki maydon bir-biri bilan quyidagicha bog‘langandir:

$$E' = \frac{\varepsilon + 2}{3} E \quad (15)$$

(11) formulani chiqarishda gaz molekulalari juda siyrak joylashgan deb olgan edik, shuning uchun ham

$$E = E'$$

bo‘ladi.

Agar gaz molekulalari juda zich joylashgan bo‘lsa, ya’ni gaz molekulalari orasidagi masofa ularning o‘lchamiga (molekulalar o‘lchamiga) yaqin bo‘lsa:

$$E \neq E'$$

U holda (1)

$$\vec{P} = \vec{p}N = \alpha N \vec{E}' \quad (16)$$

U vaqtida:

$$\varepsilon \vec{E} = \vec{E} + 4\pi N \alpha \vec{E}' \quad (17)$$

bo‘ladi yoki (15) ga asosan yozsak:

$$\varepsilon \vec{E} = \vec{E} + 4\pi N \alpha \vec{E} \frac{\varepsilon + 2}{3} \quad (18)$$

$$\varepsilon = 1 + 4\pi N \alpha \frac{\varepsilon + 2}{3} \quad (19)$$

$$\varepsilon - 1 = \frac{4}{3} \pi N \alpha (\varepsilon + 2) \quad (20)$$

bundan :

$$\frac{\varepsilon - 1}{\varepsilon + 2} = \frac{4}{3} \pi \alpha N \quad (21)$$

(21) ga Klauzius – Masotti tenglamasi deyiladi. (21) dagi  $\alpha$  - statik maydondagi effektiv qutblanuvchanlik deyiladi.

Agar (21) ni molekulyar hajmga, ya’ni:

$$V_0 = \frac{M}{\rho}$$

ga ko‘paytirsak, quyidagi hosil bo‘ladi:

$$\frac{\varepsilon - 1}{\varepsilon + 2} \frac{M}{\rho} = \frac{4}{3} \pi \alpha N \frac{M}{\rho} = \frac{4}{3} \pi \alpha N_A = P \quad (22)$$

Bu erda :

$M$  – molekulyar og‘irlik

$\rho$  – zichlik


$V_0$  – molyar hajm

$P$  – statik maydonda molekulyar qutblanish

Qutblanish uch xil bo‘ladi:

1. Elektron qutblanish
2. Atom qutblanish
3. Orientatsion qutblanish

a) Elektron qutblanish – bu elektronlarni maydon ta’siri ostida maydonni musbat qutbi tomon siljishini xarakterlaydi va uni  $P_e$  deb belgilaymiz.



### 1-Rasm

Bunday qutblanish natijasida yadro va elektronlar bir-biriga nisbatan siljiydi. Atomda musbat va manfiy zaryadlarning markazi bir-biriga to‘g‘ri siljiydi. Bu o‘zgarishni vodorod atomi misolida qaraylik. 1-rasmdagidek bo‘ladi. Elektronlarning siljishi har qanday moddada sodir bo‘ladi. Lekin har xil moddalarda har xil siljiydi. Agarda elektron qanchalik bo‘sh bog‘langan bo‘lsa, u shuncha ko‘p siljiydi, ya’ni shuncha ko‘p qutblanadi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, tashqi qavatdagi elektronlar oson qutblanar ekan.

b) Atom qutblanish – bu atom yadrosining elektr maydoni ta’siri ostida maydonning manfiy qutbi tomon siljishini xarakterlaydi va uni  $P_a$  deb belgilaymiz.

Masalan, molekulalarda zaryadlangan atomlar yoki yadrolar (yoki atomlar guruhi) qarama-qarshi tomon siljiydi. YA’ni, molekulaning qarama-qarshi zaryadlangan atomlari bir-biriga nisbatan siljiydi, ular orasidagi masofalar ortadi va natijada molekulalarning qutblanishi ortadi.

Qutblanmagan (tug‘ma dipol bo‘limgan) molekulalar qutblangan molekulaga aylanishi mumkin.

Sizga ma’lumki, molekulalar 2 xil bo‘ladi:

- 1) Qutbli
- 2) Qutbsiz


Elektron va atom qutblanishi deformatsiya bilan sodir bo‘lganligi tufayli, bu qutblanishlarning yig‘indisiga ba’zan deformatsion (yoki induksion) qutblanish deb ham aytildi:

$$R_d = P_e + P_a \quad (22.a)$$

YAdro elektronidan og‘ir bo‘lgani uchun atom qutblanish elektron qutblanishdan miqdor jihatidan kam bo‘ladi. Quyidagi jadvalda ayrim atom va elektron qutblanishlarning qiymatlari keltirilgan.

Modda	$P_e (sm^3)$	$P_a (sm^3)$
Benzol	25.05	0.55
Geksan	29.33	0.26
To‘rt xlorli uglerod	25.88	1.2

s) Orientatsion qutblanish – bu faqat qutbli molekulalarda sodir bo‘lib, maydon bo‘lmaganda tartibsiz o‘rnashgan qutbli molekulalar maydonga kirgach o‘z atrofida harakatini davom ettirib, musbat qutblari bilan maydonning manfiy qutblari tomon, manfiy qutblari bilan musbat qutblari tomon buriladi. Biz bunday qutblanishni ( $P_o$ ) bilan belgilaymiz. Buni quyidagi rasmda ko‘rishimiz mumkin:



Qutbli molekulalarni qutblanishi bilan qutbsiz molekulalarning qutblanishi farq qiladi. YUqorida aytganimizdek qutbsiz molekulalarda faqatgina  $P_e$ ,  $P_a$  bo‘lsa, qutbli molekulalarda ularga qo‘sishimcha ( $P_o$ ) ham bo‘ladi. Qutbli molekulalar uchun umumiy qutblanish quyidagicha bo‘ladi:

$$P = P_e + P_a + P_o \quad (22.b)$$

(22) formuladan ko‘rinadiki qutblanish temperaturaga bog‘liq emas ekan. Haqiqatda deformatsion qutblanish temperaturaga bog‘liq emas. Bu qutblanish qutbsiz molekulalarda vujudga keladi, demak, bundan ko‘rinadiki, qutbsiz molekulalarning qutblanishi temperaturaga bog‘liq emas ekan.

Lekin temperatura ortishi bilan orientatsion qutblanish kamayadi. Demak, temperaturaning o‘zgarishi bilan qutbli molekulalarning o‘zgarar ekan. Buni quyidagicha tushuntirish mumkin: temperaturaning ortishi bilan molekulalarning harakati kuchayib, ularning Orientatsion qutblanishi kamayadi va bu kamayish quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$P_o = \frac{1}{9} \frac{\pi N_A}{kT} \mu^2 \quad (22.v)$$

$\mu$  - tug‘ma dipol

$k$  - Bolsman doimiysi

(22.v) ni hisobga olib, qutbli molekulalaruchun Klauzius - Masotti tenglamasini yozsak, quyidagiga teng bo‘ladi:

$$P = \frac{\varepsilon - 1}{\varepsilon + 2} = \frac{4}{3} \pi N_A (\alpha + \frac{\mu^2}{3kT}) \quad (22.g)$$

Biz yuqorida moddalarni elektrostatik maydonga joylashtirilganda, ularda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni ko‘rib chiqdik.

Umumiyliz fizika kursidan ma’lumki, moddalardan elektromagnit tebranish o‘tganda o‘zgaruvchan elektr maydoni vujudga keladi. O‘zgaruvchan ana shunday ta’sirida moddalarda gaz beradigan hodisalar alohida ahamiyatga ega. O‘zgaruvchan bunday maydon moddadidan yorug‘lik o‘tganda ham vujudga keladi.

Agar statik maydon, dielektrik o‘tkazuvchanlik doimiyligi bilan xarakterlansa, nur to‘lqinining maydoni moddaning nur sindirish ko‘rsatkichi ( $n$ ) bilan xarakterlanadi. YUqorida aytganimizdek, to‘qin uzunligi katta bo‘lgan hol uchun:

$$n = \sqrt{\varepsilon} \quad \text{yoki} \quad \varepsilon = n^2$$

Bu almashtirishni Klauzius – Masotti tenglamasiga qo‘ysak, (22) quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\frac{n^2 - 1}{n^2 + 2} \frac{\mu}{\rho} = \frac{4}{3} \pi \alpha N_A = R \quad (23)$$

$R$  - molekulyar refraksiya

Refraksiya – bu yorug‘lik maydoni ta’siri ostda molekula tarkibidagi elektronlarni siljishi yoki elektron qobiqlarning deformatsiyasini xarakterlaydi.

Demak,  $\varepsilon = n^2$  bo‘lganda  $R = P$  bo‘lishi kerak ekan. Bu esa faqat qutbsiz molekulalar uchun to‘g‘ridir. Qutbli molekulalar uchun esa:

$$\varepsilon > n^2 \quad \text{da} \quad R < P \text{ bo‘ladi.}$$

Bunga sabab, tekshirishlar shuni ko‘rsatdiki, qutbli molekulalar o‘zgaruvchan maydonda Orientatsion qutblanishga ulgura olmaydi va natijada molekulaning dipol moment o‘zgarmasdan qoladi.

Xuddi shuningdek, og‘ir yadro ham o‘zgaruvchan maydonda qutblanishga ulgura olmaydi, natijada atom qutblanish ro‘y bermaydi. SHunday qilib, refraksiya elektron qutblanishga teng bo‘lar ekan, ya’ni:

$$R = P_e$$

Bundan kelib chiqadiki, refraksiya molekuladagi elektronlarning qutblanishini bildirar ekan. (23) ga asosan  $(\alpha)$  bilan  $(R)$  quyidagicha bog‘lanishga ega:

$$R = \frac{4}{3} \pi N_A \alpha \quad (24)$$

yoki

$$\alpha = \frac{R}{\frac{4}{3} \pi N_A} = 3.97 \cdot 10^{-25} R \quad (25)$$

Demak, (25) dan ko‘rinadiki,  $(\alpha)$  qanday o‘lchamga ega bo‘lsa,  $(R)$  ham shunday birlikka ega bo‘lar ekan, yani ( $\text{sm}^3$ ). SHuning uchun ham (25) ga asosan refraksiya deb molekuladagi hamma elektronlarning qutblanuvchanligini ham tushunamiz.

Molekular refraksiyani bilib, molekulalararo ta'sirini, ularning struktura tuzilishiga xos ma'lumotlarni olishimiz mumkin. Undan tashqari ( $R$ ) ni qiymatini bilib, qutblanuvchanlikni qiymatini topish mumkin. Lekin refraksiya orqali topilgan ( $\alpha$ ), dielektrik doimiysi orqali topilgan ( $\alpha$ ) dan farq qiladi, chunki, ( $\alpha$ ) chastotaga bog'liqdir. Tajribalar ko'rsatadiki, molekular refraksiya bosim o'zgarishi bilan juda kam o'zgaradi. Undan tashqari molekular refraksiya moddaning agregat holatda o'zgarishi bilan ham juda kam o'zgaradi.

### Qutblanuvchanlik tenzori

YUqorida aytib o'tganimizdek, dielektrik molekulalar qutblanganda, dipol momentiga ega bo'ladi va bu dipol momenti maydon kuchlanganligiga to'g'ri proporsional bo'ladi:

$$\vec{P} = \alpha \vec{E} \quad (1)$$


Lekin, bu tenglik hamma vaqt ham bajarilmaydi, chunki, molekulaing dipol moment yo'nalishi jihatidan maydon kuchlanganligi yo'nalishi bilan mos tushavermaydi. YA'ni, ikkala kattalik o'zaro ma'lum bir burchak ostida bo'lishlari mumkin. Bu holda tashqi maydon ta'siri asosida molekulalar qutblanadi. Lekin, qutblanuvchanlik ( $\alpha$ ) turli yo'nalishlarda har xil qiymatlarga ega bo'ladi. SHuning uchun ham qutbalanuvchanlik ( $\alpha$ ) xossasini tenzor kattalik bilan xarakterlash mumkin. Faraz qilaylik,  $X, Y, Z$  o'qlardagi qutblanuvchanlik  $\alpha_x, \alpha_y, \alpha_z$ , maydon kuchlanganligi  $E_x, E_y, E_z$ , dipol momentlari  $P_x, P_y, P_z$  bo'lsin. U holda bu kattaliklar o'zaro quyidagicha bog'langandir:

$$\begin{cases} P_x = \alpha_{xx} E_x + \alpha_{xy} E_y + \alpha_{xz} E_z \\ P_y = \alpha_{yx} E_x + \alpha_{yy} E_y + \alpha_{yz} E_z \\ P_z = \alpha_{zx} E_x + \alpha_{zy} E_y + \alpha_{zz} E_z \end{cases} \quad (2)$$

Analitik geometriya kursidan ma'lumki, har qanday tenzor yuqori rangli vektordir. Skalyar esa nolinchı rangli vektordir. Agar qutblanuvchanlik turli xil yo'nalish bo'yicha turli xil qiymatga ega bo'lsa, ikkinchi rangli tenzor bo'ladi:

$$\begin{pmatrix} \alpha_{xx} & \alpha_{xy} & \alpha_{xz} \\ \alpha_{yx} & \alpha_{yy} & \alpha_{yz} \\ \alpha_{zx} & \alpha_{zy} & \alpha_{zz} \end{pmatrix} \quad (3)$$

Faraz qilaylik, molekula ellipsoid shaklga ega bo'lsin va bu ellipsoid o'qlari



$X, Y, Z$  koordinata o‘qlari bilan mos tushsin.

Bu holda qutblanuvchanlik tenzori diogonal ko‘rinishga keltiriladi, ya’ni:

$$\begin{pmatrix} \alpha_{xx} & \alpha_{xy} & \alpha_{xz} \\ \alpha_{yx} & \alpha_{yy} & \alpha_{yz} \\ \alpha_{zx} & \alpha_{zy} & \alpha_{zz} \end{pmatrix} \rightarrow \begin{pmatrix} \alpha_{xx} & 0 & 0 \\ 0 & \alpha_{yy} & 0 \\ 0 & 0 & \alpha_{zz} \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} \alpha_1 & 0 & 0 \\ 0 & \alpha_2 & 0 \\ 0 & 0 & \alpha_3 \end{pmatrix} \quad (4)$$

Bu holda molekulalarning har o‘qidagi qutblanuvchanlikni bilib, shu moddaning anizotropligini aniqlash mumkin:

$$\gamma^2 = \frac{1}{2} \left[ (\alpha_x - \alpha_y)^2 + (\alpha_y - \alpha_z)^2 + (\alpha_z - \alpha_x)^2 \right] \quad (5)$$

Anizotrop molekulalar uchun:

$$\alpha_x \neq \alpha_y \neq \alpha_z$$

bo‘ladi.

Masalan, xlor benzol uchun:

$$\alpha_x \neq \alpha_y \neq \alpha_z$$

Natijada bunday molekula uchun  $\gamma^2 \neq 0$ . Ba’zi molekulalar borki  $\alpha_x \neq \alpha_y = \alpha_z$  bo‘ladi. YA’ni, ikki o‘qi bo‘yicha qutblanish bir xil bo‘ladi.

Masalan, benzol-bunday molekulalarga aksial simmetrik molekulalar deyiladi. Ba’zi molekulalar uchun

$$\alpha_x = \alpha_y = \alpha_z$$

U holda  $\gamma^2 = 0$  bo‘ladi. Bunday molekulalarga izotrop molekulalar deyiladi. ( $\gamma^2$ ) ni qiymatiga, kattaligiga qarab, moddalarni cho‘zilgan yoki cho‘zilmagan deb aytish mumkin.

### MA’RUZA 3

#### **Mavzu: Refraksiyaning additivlik xossasi. Aralashma refraksiyasining additivligi.**

Biror molekulaning refraksiyasini bilish uchun o‘sha molekulani tashkil qilgan atomlar refraksiyasini bilish kifoyadir. Chunki, molekulaning refraksiyasi uni tashkil qilgan atomlarning refraksiyasiyalari yig‘indisidan iboratdir, ya’ni molekulaning refraksiyasi additivdir.

Endi aralashmaning refraksiyasi additivmi yoki yo‘qmi, shuni tekshiraylik. Faraz qilaylikki  $1 \text{ sm}^3$  hajmdagi aralashma 3 ta komponentadan iborat bo‘lsin. Birinchi komponentaning molekulalari soni  $N_1$ , ikkinchi komponentaning

molekulalar soni  $N_2$  va uchinchi komponentaning molekulalari soni  $N_3$  bo'lsin. Bu holda umumiy  $1 \text{ sm}^3$  hajmdagi molekulalar soni:

$$N = N_1 + N_2 + N_3$$

bo'ladi, ularga mos ravishda massalari  $m_1$ ,  $m_2$ ,  $m_3$  bo'lsin. U vaqtida aralashmaning zinchligi:

$$\rho = m_1 N_1 + m_2 N_2 + m_3 N_3 \quad (1)$$

Endi har bir komponentadan molekula massasini topaylik:

$$m_1 = \frac{M_1}{N_A}, \quad m_2 = \frac{M_2}{N_A}, \quad m_3 = \frac{M_3}{N_A} \quad (2)$$

$M_1$ ,  $M_2$ ,  $M_3$  – komponentalarning molekulyar og'irligi. (2) ni hisobga olib, (1) ni yozsak:

$$\rho = \frac{M_1}{N_A} N_1 + \frac{M_2}{N_A} N_2 + \frac{M_3}{N_A} N_3 \quad (3)$$

Agar biz har bir komponentalarni konsentratsiyasini mos ravishda  $f_1$ ,  $f_2$ ,  $f_3$  deb olsak, quyidagiga teng bo'ladi:

$$f_1 = \frac{N_1}{N}, \quad f_2 = \frac{N_2}{N}, \quad f_3 = \frac{N_3}{N} \quad (4)$$

yoki

$$N_1 = f_1 N, \quad N_2 = f_2 N, \quad N_3 = f_3 N \quad (5)$$

Buni (3) ga qo'ysak:

$$\rho = \frac{M_1}{N_A} f_1 N + \frac{M_2}{N_A} f_2 N + \frac{M_3}{N_A} f_3 N = \frac{N}{N_A} \underbrace{(M_1 f_1 + M_2 f_2 + M_3 f_3)}_M \quad (6)$$

$M$  – o'tacha molekulyar og'irlik, chunki bu konsentratsiyaga bog'liq.

$$\rho = \frac{N}{N_A} M \quad (7)$$

Bu aralshmani yorug'lik maydoniga joylashtirsak, molekulalar qutblanadi. Birinchi molekulaning qutblanuchanligi  $\alpha_1$ , ikkinchisiniki  $\alpha_2$  va uchinchisiniki  $\alpha_3$  bilan belgilasak, hamda:

$$E' = \frac{\varepsilon+2}{3} E$$

ekanligini hisobga olib, dipol momentini yozsak:

$$P = N_1 \alpha_1 E' + N_2 \alpha_2 E' + N_3 \alpha_3 E' = \frac{\varepsilon+2}{3} E (N_1 \alpha_1 + N_2 \alpha_2 + N_3 \alpha_3) \quad (8)$$

Boshqa tarafdan:

$$P = \frac{\varepsilon-1}{4\pi} E \quad (9)$$

ekanligini hisobga olsak, (8) quyidagicha bo'ladi:

$$\frac{\varepsilon-1}{4\pi} E = \frac{\varepsilon+2}{3} E (N_1 \alpha_1 + N_2 \alpha_2 + N_3 \alpha_3) \quad (10)$$

$$\frac{\varepsilon-1}{\varepsilon+2} = \frac{4}{3} \pi (N_1 \alpha_1 + N_2 \alpha_2 + N_3 \alpha_3) \quad (11)$$

$n^2 = \varepsilon$  ekanligini hisobga olsak:

$$\frac{n^2 - 1}{n^2 + 2} = \frac{4}{3} \pi (N_1 \alpha_1 + N_2 \alpha_2 + N_3 \alpha_3) \quad (12)$$

(12) formula eritmalar uchun Lorents-Lorents formula deyiladi. Buni ikki tarafini ham  $\frac{M}{\rho}$  ga ko‘paytirsak:

$$\frac{n^2 - 1}{n^2 + 2} \frac{M}{\rho} = \frac{4}{3} \pi (N_1 \alpha_1 + N_2 \alpha_2 + N_3 \alpha_3) \frac{M}{\rho} = \frac{4}{3} \pi (N_1 \alpha_1 + N_2 \alpha_2 + N_3 \alpha_3) \frac{N_A}{N} \quad (13)$$

(13) dan konsentratsiyani hisobga olsak, quyidagicha bo‘ladi:

$$\frac{n^2 - 1}{n^2 + 2} \frac{M}{\rho} = \frac{4}{3} \pi N_A (f_1 \alpha_1 + f_2 \alpha_2 + f_3 \alpha_3) \quad (14)$$

Agar biz:

$$R = \frac{4}{3} \pi N_A \alpha \quad \text{hamda} \quad f_1 = \frac{N_1}{N}$$

ekanligini hisobga olib, (14) ni yozsak:

$$R = \frac{n^2 - 1}{n^2 + 2} \frac{M}{\rho} = R_1 f_1 + R_2 f_2 + R_3 f_3 \quad (15)$$

hosil bo‘ladi.

Demak, aralashmalarning ham refraksiyasi additiv xususiyatga ega ekan. Noma’lum moddaning refraksiyasini quyidagicha toppish mumkin:

$$R_x = \frac{R - \bar{R}(1-f)}{f} \quad (16)$$

$R_x$  - noma’lum moddaning refraksiyasi

$R$  - eritma refraksiyasi

$\bar{R}$  - erituvchining refraksiyasi

YA’ni erituvchi va eritmaning refraksiyasi ma’lum bo‘lsa, eruvchi moddaning refraksiyasini toppish mumkin.

#### MA’RUZA 4


#### Mavzu: Ionli va ionsiz bog‘lanishlar refraksiyasining additivligi.

Ionli bog‘lanishga ega bo‘lgan molekulalar hosil bo‘lishda molekula hosil qilayotgan atomlarning biri elektron chiqaradi va musbat ionga aylanadi. Ikkinchisi esa bu chiqqan elektronni o‘ziga biriktirib olib, manfiy ionga aylanadi. Natijada hosil musbat va manfiy ionlar o‘zaro tortishib molekula hosil qiladi. Bunday molekulalarga misol sifatida quyidagilarni olish mumkin:

$$R_{naz} = R_{Na^+} + R_{Cl^-} NaBr, \quad NaBr, \quad NaF, \quad LiF$$

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ionli bog‘langan molekulalarning refraksiyasi har bir ionlarning refraksiyalarining yig‘indisidan iborat bo‘lar ekan.

Misol tariqasida  $NaCl$  ni qaraylik:



$$R_{NaCl} = R_{Na^+} + R_{Cl^-} \quad (1)$$

Xuddi shuningdek qutblanivchanlik ham additiv xossaga ega, ya'ni:

$$\alpha_{NaCl} = \alpha_{Na^+} + \alpha_{Cl^-} \quad (2)$$


Boshqa ionli molekulalarda ham qutblanuvchanlik va refraksiya xuddi shu qoida orqali topiladi. Ana shunday usulda nazariy ravishda hisoblangan refraksiyaning qiymati uni tajribada aniqlangan qiymatiga yaqin keladi. quyidagi jadvalda ayrim ionli bog'lanish hosil qilgan molekulalarning refraksiyasining qiymatlari (nazariy va tajriba yo'li bilan topilgan) taqqoslanadi:

Modda	$R_{taj}$	$R_{naz}$
$LiF$	2.34	2.72
$NaF$	3.02	3.10
$NaCl$	8.52	8.31
$NaBr$	12.56	12.60

Jadvaldan ko'rindiki, haqiqatda ham tajriba va nazariy yo'llar bilan topilgan refraksiyaning qiymati o'zaro mos tushar ekan.

### Ionsiz bog'lanishlarga refraksiyasining additivligi

$CH_4$  Ionsiz bog'lanish hosil bo'lishda bog'lanish hosil qiluvchi atomlar elektron chiqarmaydi ham, qabul qilmaydi ham. Bu holda bog'lanish hosil qiluvchi atomlarda 2 ta, 4 ta, 6 ta elektronlar umumiy qatnashadi. Bunday molekulalarga misol qilib  $HCl$ ,  $O_2$ ,  $Cl_2$ ,  $CH_4$  va hakozolarni olish mumkin.



ko'rsatdiki, ionsiz bog'lanish hosil qilgan molekulalarda ham refraksiya additiv xossaga ega ekan.

Isbot tariqasida kimyoviy birikmalarni gomologik qatori uchun refraksiya qiymatini o'zaro solishtiraylik.

Bunday qatorda joylashgan ikki qo'shni birikmalarni keyingisi oldingisiga nisbatan bir xil atom gruppasiga farq qiladi. Agar bunday hol uchun refraksiya additiv xossaga ega bo'lsa, u holda ikkita qo'shni joylashgan gomologik qatordan birikmalarning refraksiyalari farqi doimiy bo'lishi kerak.

Misol tariqasida normal tuzilishga ega bo'lgan to'yangan uglevodorodlarni qaraylik. To'yangan uglevodorodlarni umumiy formasi quyidagicha ifodalananadi:

$$C_nH_{2n+2} \quad (1)$$

Quyidagi jadvalda uglevodorodlar gruppasining formulasi, refraksiya qiymati va ikkita qo'shni birikamlarning refraksiya qiymatlarining farqi keltirilgan:

Birikmalar	Kimyoviy formulasi	$R, cm^3$	$\Delta R, cm^3$
H -Pantan	$CH_3(CH_2)_3CH_3$	25.28	
H -Geksan	$CH_3(CH_2)_4CH_3$	29.86	4.58
H -Geptan	$CH_3(CH_2)_5CH_3$	34.5	4.65
H -Oktan	$CH_3(CH_2)_6CH_3$	39.13	4.63
H -Nontan	$CH_3(CH_2)_7CH_3$	43.78	4.65
H -Dekan	$CH_3(CH_2)_8CH_3$	48.4	4.63
H -Undekan	$CH_3(CH_2)_9CH_3$	53.06	4.65
H -Dodekan	$CH_3(CH_2)_{10}CH_3$	57.67	4.61

Jadvaldan ko'rindan, oldingi qator keyingi qatorga nisbatan ( $CH_2$ ) ga farq qilib,  $\Delta R$  ning qiymati qariyb o'zgarmaydi va uning qiymati quyidagicha

$$\Delta R = 4.62 = R_{CH_2} = R_C + 2R_H \quad (2)$$

YA'ni bu joyda har safar ( $CH_2$ ) ga ko'paytsa refraksiya qiymati 4.62 ga o'zgarar ekan. Refraksiyani addditivlik xossasini hisobga olib, yuqorida keltirilgan jadval uchun quyidagi tenglikni yozish mumkin:

$$R_{C_nH_{2n+2}} = nR_C + (2n+2)R_H \quad (3)$$

To'yangan uglevodorodlarning refraksiya qiymatini solishtirib uglerod va vodorod tatomlarining refraksiyalarini aniqlash mumkin.

YAkka bog'lanish hosil qilgan hol uchun, ya'ni  $C_-$  :

$$R_{C_-} = 2.418 sm^3 \quad R_H = 1.100 cm^3$$

Agarda modda tarkibidagi uglerod atomi ikkilangan bog'lanish hosil qilsa, u holda refraksiyaning qiymati o'zgaradi  $C_=$  juft bog'lanish:

$$R_{C_=} = 4.151 sm^3$$

Xuddi shuningdek,  $R_{C\equiv}$  ham  $R_{C=}$  kabi qiymat jihatdan  $R_{C-}$  da farq qiladi. Ana shunday farqqa inkrement deyiladi. Odatda ikkilangan va uchlangan bog'lanishlar inkrementi quyidagicha belgilanadi va ularning qiymati quyidagiga teng:

$$\begin{array}{ll} F - \text{ikkilangan} & F = 1.73 \text{ sm}^3 \\ \mathbb{F} - \text{uchlangan} & \mathbb{F} = 2.398 \text{ sm}^3 \end{array}$$

YUqorida aytigalarni hisobga olgan holda ikkilangan bog'lanish refraksiyasini yakka bog'lanish refraksiyasi orqali (inkrementni hisobga olgan holda) quyidagilarni toppish mumkin:

$$R_{C\equiv} = R_{C-} + F = 2.418 + 1.733 = 4.151 \text{ sm}^3 \quad (4)$$

Xuddi shu yo'l bilan ulangan bog'lanish hosil qilgan uglerod atomini refraksiya qiymatini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$R_{C\equiv} = R_{C-} + \mathbb{F} = 2.418 + 2.398 = 4.816 \text{ sm}^3$$

Umumiy holda molekulaning refraksiyasi quyidaicha topiladi:

$$R = \sum_n R_n + \sum_i J_i \quad (5)$$

$\sum_n R_n$  - atomlar refraksiyasining yig'indisi

$\sum_i J_i$  - inkrementlar yig'indisi

Agarda inkrement bo'lmasa, molekulalar refraksiyasi quyidagicha topiladi:

$$R = \sum_n R_n \quad (6)$$

Quyidagi jadvalda ayrim molekulalar uchun refraksiyaning qiymati keltirilgan:

Atomlar	$R_{atom}$	Molekula	$R_{molekula}$
H	1.02	$H_2$	2.04
N	2.19	$N_2$	4.38
O	2.01	$O_2$	4.02
Cl	5.99	$Cl_2$	11.98

Jadvaldan ko'rnatdiki, haqiqatdan (6) formula o'rni ekan.

Tekshirishlar shuni ko'rsatdiki, faqat qutblanuvchanlik va refraksiya additiv xossalarga ega bo'lmasdan, balki boshqa molekulyar kattaliklar ham additiv xossalarga ega ekan.

Masalan, bog'lanish uzunligi  $l$  ning qiymati berilgan atomlar uchun turli xil birikmalarda bir xil bo'ladi.  $C-C$  bog'lanishni qaraylik.


$l_{c-c}^0 = 1.548 \text{ \AA}$ , ya'ni bu bog'lanish uzunligi har qanday birikmada ham o'zgarmaydi. Bu xulosa ikkilangan  $C=C$  va uchlangan  $C\equiv C$  bog'lanishlar uchun ham o'rnlidir.

$$l_{c=c}^0 = 1.35 \text{ \AA}$$

$$l_{c=c} = 1.20 \text{ \AA}^0$$

Xuddi shunday valent burchaklar ham shunday xususiyatga egadir. Masalan,  $H_2O$  YA'ni  $HOH$  orasidagi burchak  $105^\circ$  ni tashkil qilib hamma joyda bu qiymat saqlanadi.

Bulardan tashqari kimyoviy bog'lanish hosil bo'lish energiyasi ham additiv xususiyatga ega bo'ladi. Fikrimiz isboti misolida quyidagi birikmalarini ko'rishimiz mumkin:



Modda	Kimyoviy formulasi	$E$ (kkal/mol)	$\Delta E$ (kkal/mol)
Metan	$CH_4$	348.6	
Etan	$CH_3CH_3$	579.0	230.4
$H$ -propan	$CH_3CH_2CH_3$	811.6	232.6
$H$ -butan	$CH_3(CH_2)_2CH_3$	1044.8	233.2
$H$ -pentan	$CH_3(CH_2)_3CH_3$	1277.8	233.0
$H$ -geksan	$CH_3(CH_2)_4CH_3$	1511.9	234

Jadvaldan ko'rindiki birikmalar qiymati har safar ( $CH_2$ ) ga o'zgarishi bilan kimyoviy bog'lanish energiyasi qariyb bir xil qiymatga (232 kkal/mol) farq qiladi. Xuddi shunday xulosaga molekulyar refraksiyani o'rganganda ham kelgan edik. Demak, bundan ko'rindiki kimyoviy hosil qilish energiyasi ham additiv xossaga ega.

## MA'RUZA 5

### Maruza: Additiv bo'lmagan birikmalar refraksiyasi.

Ba'zi bir organi moddalar borki, bunday moddalar uchun refraksiya additiv xossaga ega emas. Bunday bunday xususiyatga ega bo'lgan moddalarga qo'shma bog'lanishga ega bo'lgan aromatik yadrodan iborat bo'lgan kimyoviy birikmalar kiradi.

Agar modda tarkibidagi atomlar o'zaro bog'lanib molekula hosil qilsalar va ana shu molekulani hosil qilishdagi yakka bog'lanish ikkilangan bog'lanish bilan takroriy ravishda almashinib tursa, u holda qo'shma bog'lanish hosil bo'ladi. Qo'shma bog'lanishga ega bo'lgan molekulalarga misol qilib butadiioni olish mumkin:



Butadiioni refraksiyasi uni nazariy ravishda hisoblangan refraksiyasidan  $1.42 \text{ sm}^3$  ga farq qiladi. YA'ni:

$$\Delta R = R_{max} - R_{min} = 1.42 \text{ cm}^3 \quad (2)$$

Boshqacha aytganda ayrim molekulalar uchun tajribada aniqlangan refraksiyaning qiymati nazariy ravishda aniqlangan refraksiyaning qiymatidan farq qiladi. YA'ni:

$$\Delta R = R_{max} - R_{min}$$

Ana shu  $\Delta R$  farqqa ekzoltatsiya deyiladi. Ekzoltatsiya musbat yoki manfiy bo'lishi mumkin. Agar  $R_{Ta} > R_{Ha}$  bo'lsa, musbat,  $R_{Ta} < R_{Ha}$  bo'lsa, manfiy ekzoltatsiya bo'ladi. Tajribalar ko'rsatadiki, agar additiv bo'lamagan molekula qancha murakkab bo'lsa yoki molekula tarkibida aromati yadrolar qancha ko'p bo'lsa, ekzoltatsiya ham shuncha katta bo'ladi.

So'zimizni isboti misolida quyidagi jadvalni keltiramiz:

Nº	Moddalar	Struktura formulasi	$\Delta R, sm^3$
1	Benzol		0
2	Naftalin		2.55
3	Antroksin		8.17

Haqiqatdan ham jadvaldan ko'rindaniki, molekula murakkab bo'lgan sayin ekzoltatsiya quymati osha borar ekan.

## MA'RUZA 6

### Mavzu: Yorug'likni gazlarda sochilishi

Bizga ma'lumki, biror muhitga yorug'lik tushsa, u muhit tomonidan bir qismi yutiladi, bir qismi sochiladi yoki qaytadi. Biz shulardan biri sochilishi ko'rib chiqaylik.

Hozirgi zamon nazariyasiga asosan yorug'likning sochilishiga asosiy sabab bu yorug'lik fluktuatsiyasi va anizatrop molekulalarning orientatsion fluktuatsiyasidir. Umuman olganda yorug'lik biror muhitga tushganda shu muhitning elektronlari elektr maydon ta'sirida tebranadi. Bu majburiy tebranish tufayli paydo bo'ladigan ikkilamchi to'lqinlar yorug'lik energiyasi olib kelayotgan energiyaning bir qismini chetga sochib yuboradi. Boshqacha aytganda moddada yorug'lik tarqalayotganda yorug'lik sochilishi yuz beradi. Bunday hodisa yuz berishi uchun yorug'lik to'lqinining o'zgaruvchan maydoni ta'siri ostida tebrana oladigan elektronlar bo'lishi etarlidir, bunday elektronlar esa har qanday moddiy muhitda bor. Biroq shuni aytish kerakki, bu ikkilamchi to'lqinlar o'zaro kogarent bo'ladi va demak, chetga sochib yuborilgan yorug'likning intensivligini hisobga olishda ularning o'zaro interferensiyasini e'tiborga olish kerak.

Haqiqatdan ham, agar muhit optik jihatdan bir jinsli bo'lsa, ya'ni uning sindirish ko'rsatkichi hamma nuqtalarda o'zgarmas, u holda, bir xil hajmlarda yorug'lik to'lqini bir xil elektr momentlarning vaqt o'tishi bilan o'zgarishi oqibatida bir xil amplitudali ikkilamchi to'lqinlar chiqaradi. Ixtiyoriy ikki nuqtadan chiqayotgan ikkilamchi to'lqin yo'llar farqi tufayli faza jihatdan bir-biriga qarama-

qarshi bo‘ladi va natijada bu ikkilamchi to‘lqinlar bir-birini so‘ndiradilar. SHuning uchun ham yorug‘lik bir jinsli muhitda sochilmaydi, faqatgina dastlabki yo‘nalishda tarqaladi, ya’ni qanday yo‘nalishda tushsa, shu yo‘nalishda o‘tib ketadi.

SHunday qilib, muhitning bir jinsli va ikkilamchi to‘lqinlarning kogarent bo‘lishi yorug‘likning sochilmasligiga asosiy sabab bo‘lar ekan. Haqiqatda esa ideal bir jinsli muhit bo‘lmaydi. Real muhitda turli sababdan paydo bo‘lgan optik bir jinslimaslik hamisha paydo bo‘ladi. Bu esa ba’zi hollarda juda intensiv, ba’zi hollarda juda zaif sochilishni bildiradi.

Faraz qilaylik, biror bir gazga yorug‘lik tushayotgan bo‘lsin. Tushayotgan yorug‘likning maydon kuchlanganligi quyidagiga teng bo‘lsin:

$$E = E_0 e^{i\omega t} \quad (1)$$

Bu erda  $E$  - elektr maydon kuchlanganligi

$E_0$  -uning amplituda qiymati

$\omega$  - maydon chastotasi

$t$  - vaqt

Bu maydon ta’siri ostida o‘zgaruvchan dipol momenti hosil bo‘ladi:

$$P = \alpha E = \alpha E_0 e^{i\omega t} \quad (2)$$

YOrug‘lik ta’siri ostida o‘zgaruvchan dipol momentiga ega bo‘lgan molekula ikkilamchi to‘lqin tarqata boshlaydi. Bu ikkilamchi to‘lqin elektr maydon kuchlanganligi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\vec{\xi} = \frac{1}{cr^3} [\vec{r} [\vec{r} \cdot \vec{p}]] \quad (3)$$

$r$  - sochuvchi hajmdan kuzatish nuqtasigacha bo‘lgan masofa

YOki dipol tebranayotganda kuzatish burchagini hisobga olsak, (3) quyidagicha bo‘ladi:

$$\begin{aligned} \Theta &= E \\ \xi &= \frac{r^2 \ddot{P} \sin \Theta}{c^2 r^3} = \frac{\ddot{P} \sin \Theta}{c^2 r} \end{aligned} \quad (4)$$

(2) formuladan 2 marta hosila olib, ( $\ddot{P}$ ) ni topamiz va (4) ni yozsak, quyidagicha bo‘ladi:

$$\begin{aligned} \ddot{P} &= \omega^2 P \\ \xi &= \frac{r^2 \ddot{P} \sin \Theta}{c^2 r^3} = \frac{P \omega^2 \sin \Theta}{c^2 r} \end{aligned} \quad (5)$$

Optika kursidan ma’lumki, bitta molekula tomonidan chiqaraliyotgan yorug‘lik intensivligi ikkilamchi to‘lqin elektr maydon kuchlanganligining o‘rtacha qiymati bilan quyidagicha bog‘langan edi:

$$i = \xi^2 \quad (6)$$

$i$  – bitta molekula sochayotgan yorug‘likning intensivligi, u holda (5) ni quyidagicha yozish mumkin.

$$i = \frac{P^2 \omega^4 \sin^2 \Theta}{c^4 r^2} \quad (7)$$

$P = \alpha E$   
 $\omega = 2\pi\nu$

ekanligini hisobga olib, (7) ni quyidagicha yozish mumkin:

$$i = \frac{16\alpha^2 E^2 \nu^4 \pi^4}{c^4 r^2} \sin^2 \Theta \quad (8)$$

$\lambda = \frac{c}{\nu}$   
 $E^2 = J$

ekanligini hisobga olsak, (8) quyidagicha bo‘ladi:

$$i = \frac{16\alpha^2 \pi^4}{\lambda^4 r^2} J_0 \sin^2 \Theta \quad (9)$$

$J_0$  - tushuvchi yorug‘likning intensivligi

$\lambda$  - tushuvchi yorug‘likning to‘lqin uzunligi

Agar biz  $V$  hajmda  $N$  ta molekula bor desak, u holda  $V$  hajmdagi molekulalar tomonidan sochilayotgan yorug‘likning intensivligi quyidagicha bo‘ladi:

$$J = iVN \quad (10)$$

yoki

$$J = iVN = J_0 \frac{16\pi^4 \alpha^2}{\lambda^4 r^2} VN \sin^2 \Theta \quad (10^*)$$

Gazlar uchun

$$n = 1 + 2\pi N \alpha \quad (11)$$

Ekanligini hisobga olib ( $\alpha$ ) ni quyidagi trenglama hosil bo‘ladi:

$$J = J_0 \frac{4\pi^2 (n-1)^2}{\lambda^4 r^2 N} V \sin^2 \Theta \quad (12)$$

(12) formulaga Reley formulasi deyiladi. (12) formula tushayotgan yoruglik qutblangan bo‘lgan hol uchun o‘rinli. Agarda tushayotgan yorug‘lik tabiiy bo‘lsa, u vaqtida (12) da sochilish burchagini ham hisobga olish kerak.

Reley formulasidan ma’lum bo‘ladiki, sochilgan yorug‘likning intensivligi:

$$J = \frac{1}{\lambda^4}$$

YA’ni to‘lqin uzunligini to‘rtinch darajasiga teskari bo‘lar ekan. SHuning uchun ham osmon ko‘k rangda ko‘rinadi.

## MA'RUZA 7

### Mavzu: Yorug'likning gazlarda zichlik fluktuatsiyasi natijasida sochilishi


1907-yil sovet olimi L.I.Mandelshtam yorug'likning sochilishiga asosiy sabab zichlik fluktuatsiyasidir, degan xulosaga keldi.

Polyak olimi Smoluxovskiy ko'rsatdiki, muhitning bir jinsliligi hech qachon amalga oshmaydi. Molekulalarning bir jinsli taqsimlanishi entropiyaning maksimumiga to'g'ri keluvchi termodinamikaning ikkinchi qonuniga bo'ysunadi.

Lekin termodinamikaning ikkinchi qonuni statistik xarakterga egadir. SHunday qilib hamma vaqt muhitni shunday holatini topish mumkinki, bu holat uni entropiyasini maksimumiga mos keladigan holatdan farq qilsin.

Mana bunday holatlar eng avval zichlik fluktuatsiyasi natijasida amalga oshadi. Faraz qilaylik, muhitning makroskopik hajmi  $V$  bo'lzin. Ana shu hajmdan hayoliy ravishda  $\Delta V$  hajmni ajratib olamiz.

Mana shu elementar hajmda teng vaqtlar oralig'ida ya'ni:



bo'lganda molekulalar soni bir xil bo'lmadan o'zgarib turadi, ya'ni:

$$N_1 \neq N_2 \neq N_3 \quad (2)$$

Bunday bo'lishiga sabab, molekulalarning issiqlik harakatidir.

Boshqacha aytganda olingan  $\Delta V$  hajmdagi molekulalar soni ma'lum o'rtacha qiymatdan ( $\bar{N}$ ) ko'p yoki kam bo'lishi mumkin. Mana shunday o'zgarish o'z navbatida muhit zichligining o'zgarishini olib keladi va natijada zichlik fluktuatsiyasi vujudga keladi. muhitdagi molekulalar soni quyidagiga teng bo'ladi:

$$N = \bar{N} + \Delta N \quad (3)$$

$\Delta N$  - molekulalarning o'rtacha qiymatidan chetlanishi

Zichlik ham xuddi shunday bo'ladi:

$$\rho = \bar{\rho} + \Delta \rho \quad (4)$$

SHuningdek, dielektrik doimiyligining fluktuatsiyasi ham:

$$\varepsilon = \bar{\varepsilon} + \Delta \varepsilon \quad (5)$$

Odatda dilektrik doimiyligining flutuatsiyasi zichlik va temperatura fluktuatsiyasiga bog'liq bo'ladi. SHuning uchun ham ( $\Delta \varepsilon$ ) ni quyidagicha yozishimiz mumkin:

$$\Delta \varepsilon = \frac{\partial \varepsilon}{\partial \rho} \Delta \rho + \frac{\partial \varepsilon}{\partial T} \Delta T \quad (6)$$

Tajribalar shuni ko'rsatdiki temperature o'zgarishi bilan ( $\frac{\partial \varepsilon}{\partial T}$ ) kattalik juda ham

o'zgaradi, natijada  $\frac{\partial \varepsilon}{\partial T} \Delta T \rightarrow 0$  bo'ladi. U holda (6)

$$\Delta\epsilon = \frac{\partial\epsilon}{\partial\rho}\Delta\rho \quad (7)$$

Agar muhitga yorug'lik tushsa, u holda muhit muhit molekulalari qutblanadilar. YA'ni maydon ta'siri ostida zaryadlarning og'irlik markazlari bir biriga nisbatan siljiydlilar va natijada dipol momentiga ega bo'ladi.

Ana shu hosil bo'lgan muhit zarrachalarining ( $\Delta V$ ) hajm uchun quyidaga teng bo'ladi:

$$P = \frac{\epsilon - 1}{4\pi} \Delta V E \quad (8)$$

Agar muhitning dielektrik doimiysining fluktuatsiyasini, ya'ni (5) ni hisobga olib (8) ni yozsak quyidagicha bo'ladi:

$$P = \frac{\epsilon - 1}{4\pi} E \Delta V + \frac{\Delta\epsilon}{4\pi} E \Delta V \quad (9)$$

YOrug'lik maydon ta'siri ostida qutblangan molekulalar, ya'ni dipolar o'zlaridan ikkilamchi to'lqinlarni chiqara boshlaydi. Bu ikkilamchi elektromagnit to'lqinning elektr maydon kuchlanganligi elementar  $\Delta V$  hajmda quyidagicha bo'ladi:

$$\xi = \underbrace{\frac{\omega^2}{4\pi c^2 r} E(\bar{\epsilon} - 1) \sin \Theta \Delta V}_{\Delta\xi'} + \underbrace{\frac{\omega^2}{4\pi c^2 r} E \Delta\epsilon \sin \Theta \Delta V}_{\Delta\xi''} \quad (10)$$

Demak:

$$\xi = \Delta\xi' + \Delta\xi''$$

Ikkalamchi elektromagnit to'lqinlar tarkibidagi ayrim elektromagnit to'lqinlar interferensiya natijasida bir-birini kuchaytiardilar. SHuning uchun ham  $\Delta\xi' = 0$  va  $\Delta\xi'' \neq 0$  deb yozish mumkin. Natijada (10) ni quyidagicha yozish mumkin:

$$\xi = \frac{\omega^2}{4\pi c^2 r} E \Delta\epsilon \sin \Theta \Delta V \quad (11)$$

Sochilgan yorug'likni intensivligini topish uchun (11) ni ikkita tarafni kvadratga ko'tarib, hamma elementar hajm bo'yicha yig'indisini toppish kerak, ya'ni:

$$\sum \xi^2 = \frac{\omega^4}{16\pi^2 c^4 r^2} E^2 \sin^2 \Theta \sum \Delta\epsilon^2 \Delta V^2 \quad (12)$$

(12) dagi  $\sum \Delta\epsilon^2 \Delta V^2$  ni hisoblab chiqamiz.

$$\sum \Delta\epsilon^2 \Delta V^2 = \left( \frac{\partial\epsilon}{\partial\rho} \right)^2 \sum \Delta\rho^2 \Delta V^2 \quad (13)$$

(13) dan  $\sum \Delta\rho^2 \Delta V^2$  kattalikni (4) ga asosan quyidacha qilib yozish mumkin:

$$\sum \Delta\rho^2 \Delta V^2 = \left( \frac{\partial\epsilon}{\partial\rho} \right)^2 \sum_{i,k} \left[ \Delta\rho_i^2 + (\Delta\rho_i \Delta\rho_k)^2 \right] \Delta V^2 \quad (14)$$

Ikkinchi tomondan:

$$\frac{\Delta\rho}{\rho} = \frac{\Delta N}{N}$$

ni hisobga olsak, (14) quyidagicha bo'ladi:

$$\sum \Delta\rho^2 \Delta V^2 = \left( \frac{\partial\epsilon}{\partial\rho} \right)^2 \sum_{i,k} \left[ \left( \frac{\rho}{N} \right)^2 \Delta N_i^2 + \left( \frac{\rho}{N} \Delta N_i \frac{\rho}{N} \Delta N_k \right)^2 \right] \Delta V^2 \quad (15)$$

Statistik fizika qonuniga asosan :

$$\left(\frac{\rho}{N} \Delta N_i \frac{\rho}{N} \Delta N_k\right) = 0$$

bo‘ladi. Natijada (15)

$$\sum \Delta \bar{\varepsilon}^2 \Delta V^2 = \left( \frac{\partial \varepsilon}{\partial \rho} \right)^2 \sum_{i,k} \left[ \left( \frac{\rho}{N} \right)^2 \Delta \bar{N}^2 \right] \Delta V^2 \quad (16)$$

Statistik fizika kursidan bizga ma’lumki, molekulalar sonining fluktuatsiyasining o‘rtacha qiymatining kvadrati molekulalar soniga teng bo‘ladi:

$$\sum \Delta \bar{\varepsilon}^2 \Delta V^2 = (\rho \frac{\partial \varepsilon}{\partial \rho})^2 \frac{V}{N} \quad (16')$$

(16) ni qiymatini (12) ga qo‘ysak, quyidagi hosil bo‘ladi:

$$\sum \xi^2 = \frac{\omega^4}{16\pi^2 c^4 r^2} E^2 \sin^2 \Theta (\rho \frac{\partial \varepsilon}{\partial \rho})^2 \frac{V}{N} \quad (17)$$

Endi biz:

$$\sum \xi^2 = J, \quad E^2 = J_0, \quad \omega = 2\pi\nu, \quad \lambda = \frac{c}{\nu}, \quad \varepsilon = n^2$$

larni hisobga olib, (17) ni yozsak:

$$J_{soch}^{gaz} = J_0 \frac{\pi^2 V}{\lambda^4 r^2 N} (\rho \frac{\partial n^2}{\partial \rho})^2 \sin^2 \Theta \quad (18)$$

(18)-Eynshteyn formulasi.

Bu erda  $r$  – sochilish nuqtasidan kuzatish joyigacha bo‘lgan masofa. (18) formuladan Reley formulasini keltirib chiqarish mumkin. Molekulyar refraksiya formulasi quyidagicha edi:

$$\frac{n^2 - 1}{n^2 + 2} \frac{M}{\rho} = \frac{4}{3} \pi N_A \alpha \quad (19)$$

Gazlar uchun  $n \approx 1$  ekanligini hisobga olsak, (19) quyidagicha bo‘ladi:

$$\frac{n^2 - 1}{3} \frac{M}{\rho} = \frac{4}{3} \pi N_A \alpha \quad (20)$$


(20) ni bo‘yicha differensiallasak:

$$\rho \frac{\partial n^2}{\partial \rho} = 2(n-1) \quad (21)$$

hosil bo‘ladi. Buni (18) ga qo‘ysak:

$$J = J_0 \frac{4\pi^2 V}{\lambda^4 r^2 N} (n-1)^2 \sin^2 \Theta \quad (22)$$

$\alpha$  - qutblanuvchanlik koeffitsienti bo‘lib,  $n = 1 + 2\pi N \alpha$  dan topiladi. Buni qiymatini (23) ga qo‘ysak, (22) keltirib chiqaramiz. (23) ni xususiy hollarini ko‘rib chiqaylik: 1-hol: Tushuvchi yorug‘lik ( $z$ ) o‘qi bo‘yicha qutblangan bo‘lib, ( $x$ ) o‘qi bo‘yicha tushayotgan bo‘lsin. Sochilgan yorug‘lik esa (Oxy) tekisligida kuzatilsin:




$\Theta = 90^\circ$   
Bu holda bo‘lgani uchun (23) ni quyidagicha yozish mumkin:

$$J_{\perp} = J_0 \frac{16\pi^4 \alpha^2 V N}{\lambda^4 r^2} \quad (24)$$

$J_{\perp}$ - tushayotgan elektr vektorining tebranishi sochilishi vektoriga perpendikulardir.

2-hol: YOrug‘lik nuri X o‘qi bo‘yicha tushib, qutblanish Y o‘qi parallel bo‘lsin, u holda sochilgan yorug‘likning intensivligi quyidagicha bo‘ladi:



U holda

$$\theta = 90^\circ - \varphi \quad \text{bo‘ladi yoki} \\ \sin \theta = \sin(90 - \varphi) = \cos \varphi$$

Natijada:

$$J_{\parallel} = J_0 \frac{16\pi^4 \alpha^2 V N}{\lambda^4 n^2} \cos^2 \varphi \quad (25)$$

$J_{\parallel}$  -chunki tushayotgan elektr vektorining tebranishi sochilish tekisligiga paralleldir.

Sochilgan yorug‘likning dipolerizatsiya koeffisienti deb quyidagi kattalikka aytildi:

$$\Delta = \frac{J_{\parallel}}{J_{\perp}} = \cos^2 \varphi \quad (26)$$

Depolyarizatsiya koeffitsienti yorug‘likning qancha qismi qutblanganligini bildiradi. (26) dan ko‘rinadiki, agar  $\varphi = 90^\circ$  bo‘lsa,  $\Delta = 0$  bo‘lishi kerak, lekin  $\Delta = 0$  bo‘lmaydi. Bunga sabab muhit tajriba ko‘rsatadiki, hech vaqt molekulalarining anizatropigidir. SHunday qilib, muhit molekulalarining anizatropligi Reley formulasida hisobga olinmagan ekan.


Agar tushayotgan yorug'lik tabiiy nur bo'lsa, u holda sochilgan yorug'likning intensivligi quyidagicha aniqlanadi:

$$J_{coy} = J_{\square} + J_{\perp} = J_0 \frac{16\pi^4 \alpha^2 NV}{\lambda^4 r^2} (1 + \cos^2 \varphi) \quad (27)$$

$$R = \frac{J_{coy}}{J_0} \frac{r^2}{V} \quad (28)$$

$R$  - Reley konstantasi

Sochilgan yorug'lik intensivligi ( $\varphi$ ) burchakka bog'liq bo'lib, burchakkning o'zgarishi bilan quyidagi



Bu diagramma sochilgan yorug'lik intensivligini deyiladi.

Fazoviy indikatrisa hosil qilish uchun bu diagrammani OO' o'qi atrofida  $180^\circ$  ga aylantirish kerak.

## MA'RUZA 8

### Mavzu: Yorug'likni gazlarda anizatrop sochilishi

(Tushayotgan nur qutblangan hol uchun)

Reley nazariyasiga asosan sochilgan yorug'lik to'la qutblangan bo'lishi kerak edi. Bu xulosa tajribada tasdiqlanadi. YA'ni  $\Delta \neq 0$  bo'ladi. Bunga sabab modda molekulasining anizatropligidir. Boshqacha aytganda anizatrop molekulalarning orientatsion fluktuatsiyasi natijasida ham yorug'lik sochilar ekan.

Faraz qilaylik moddaning elementar hajmdagi dipol moment ( $P$ ) bo'lsin, fluktuatsiyasi natijasida ( $P$ ) quyidagicha o'zgaradi:

$$P = \bar{P} + \Delta P \quad (1)$$


$\bar{P}$  - dipol momentining o'rtacha qiymati

$\Delta P$  - dipol momentining o'rtacha qiymatidan chetlanishi

YOrug'likning nuri ta'siri ostida anizatrop molekulalar ikkilamchi to'lqin chiqaradilar. Bu to'lqinning maydon kuchlanganligi quyidagicha aniqlanadi:

$$\xi = -\frac{\omega^2}{c^2 r^3} [\vec{r} (\vec{r} \cdot \vec{P})] \quad (2)$$

Sochilgan yorug'likning tarkibidan  $P$  polyarizatori yordamida ( $\vec{q}$ ) elektr vektorini ajratib olamiz.



Polyarizatordan o'tgan yorug'likning elektr maydon kuchlanganligi ( $\vec{\xi}_q$ ) polyarizatorga tushayotgan yorug'likning elektromagnit maydon kuchlanganligi ( $\vec{\xi}$ ) ni ( $\vec{q}$ ) yo'nalishidagi proeksiyasiga tengdir. YA'ni:

$$\vec{\xi}_q = (\vec{\xi} \vec{q}) \quad (3)$$

(3) ifodaga (2) ni olib kelib qo'ysak:

$$\vec{\xi}_q = \left( -\frac{\omega^2}{c^2 r^3} [\vec{r} (\vec{r} \cdot \vec{p})] \right) \vec{q} \quad (4)$$

Sochilgan yorug'likning intensivligini hisoblash uchun (4) ni soddalashtirish kerak. Buning uchun vektorlar algebrasidagi ayrim qoidalarni eslaymiz:

$$[\vec{a} [\vec{b} \cdot \vec{c}]] = \vec{b}(\vec{a} \cdot \vec{c}) - \vec{c}(\vec{a} \cdot \vec{b}) \quad (5)$$

(5) ga asosan:

$$[\vec{r} [\vec{r} \cdot \vec{p}]] = \vec{r}(\vec{r} \cdot \vec{p}) - \vec{p} \cdot \vec{r}^2 \quad (6)$$

(6) ni  $\vec{q}$  vektorga ko'paytirsak

$$[\vec{r} [\vec{r} \cdot \vec{p}]] \vec{q} = (\vec{r} \cdot \vec{q})(\vec{r} \cdot \vec{p}) - (\vec{p} \cdot \vec{q}) \cdot \vec{r}^2 \quad (7)$$

$\vec{r} \cdot \vec{q} = 0$ , chunki  $\vec{r} \perp \vec{q}$  ga asosan:

Natijada (7) ni yozsak:

$$[\vec{r} [\vec{r} \cdot \vec{p}]] \vec{q} = -(\vec{p} \cdot \vec{q}) \cdot \vec{r}^2 \quad (8)$$

(8) ni (4) ga olib borib qo'ysak:

$$\vec{\xi}_q = \frac{\omega^2}{c^2 r^3} (\vec{p} \vec{q}) r^2 = \frac{\omega^2}{c^2 r} (\vec{p} \vec{q}) \quad (9)$$

(9) formula bitta molekula tomonidan sochilgan ikkilamchi to'lqin elektr maydon kuchlanganlidir. ( $V$ ) hajmdagi sochilgan yorug'likning intensivligini toppish uchun (9) ni kvadratga ko'tarib butun hajm bo'yicha yig'indisining o'rtacha qiymatini olish kerak, ya'ni:

$$\sum_V (\vec{\xi}_q)^2 = \frac{\omega^4}{c^4 r^2} \sum_V (\vec{p} \vec{q})^2 \quad (10)$$

yoki

$$J_{co4} = \frac{\omega^4}{c^4 r^2} \sum_V (\vec{p} \vec{q})^2 \quad (11)$$

Bu formuladagi yig'indining tagidai ko'paytmani topsak, sochilgan yorug'likning intensivligini topgan bo'lamiz. Hamma elementar hajmlardagi anizatrop molekulalarning orientatsion fluktuatsiyasi shu elementar hajmdagi molekulalar soni ( $N$ ) fluktuatsiyasi bilan bog'liqdir. Bunga ma'lumki, dipol momentining fluktuatsiyasi (1) formula yordamida topilar edi. SHunga asosan quyidagi tenglikni yozamiz:

$$\sum_i p_i = p_0 (\bar{N} + \Delta N) + \sum_{i=1}^N \Delta p \quad (12)$$

(12) ni (11) ga olib borib qo'ysak:

$$J_{cou} = \frac{\omega^4}{c^4 r^2} \left\{ \left[ p_0 (\bar{N} + \Delta N) + \sum_{i=1}^N \Delta p_i \right] \vec{q} \right\}^2 \quad (13)$$

$\Delta \bar{N}^2 = N$  ekanligini hisobga olib, (13) ni quyidagicha yozish mumkin:

$$J_{cou} = Q(\vec{p}_0 \vec{q})^2 N + Q \sum_{k=1}^N (\Delta \vec{p}_k \vec{q})^2 \quad (14)$$

Demak, (14) dan ko‘rinadiki, sochilgan yorug‘likning intensivligi 2 qismdan iborat ekan:

1-qismi – zichlik fluktuatsiyasi

2-qismi – anizatrop fluktuatsiyasi


Bizga oldingin mavzulardan ma’lumki, zichlik fluktuatsiyasi natijasida topilgan yorug‘likning intensivligi ma’lum edi. Endi biz anizatrop fluktuatsiya natijasida sochilgan yorug‘likning intensivligini topishimiz kerak. Statistik fizika qoidalariga asosan

$$\sum_{k=1}^N (\Delta \vec{p}_k \vec{q})^2 = (\vec{p} \vec{q})^2 N \quad (15)$$

bo‘ladi. (15) ni (13) ga qo‘yib, anizatrop fluktuatsiya natijasida topilgan yorug‘likning intensivligini quyidagicha yozishimiz mumkin:

$$J_{an} = \frac{\omega^4}{c^4 r^2} (\vec{p} \vec{q})^2 N \quad (16)$$

Demak,  $J_{an}$  ni toppish uchun  $(\vec{p} \vec{q})$  ko‘paytmani hisoblash kerak. Buning uchun biz quyidagidek koordinata sistemasini olamiz:



Bu koordinatalar sistemasida  $l_1$  va  $l_2$ lar birlik vektorlar bo‘lsin.  $l_1$ - tushayotgan yorug‘likning elektr maydon tebranishiga parallel va  $l_2$ - tushayotgan yorug‘likning elektr maydon tebranishiga perpendikulyar bo‘lsin, ya’ni:

$$\vec{l}_1 \parallel \vec{E}$$

$$\vec{l}_2 \perp \vec{E}$$

Bizga ma’lumki, dipol momenti maydon kuchlanganligiga to‘g‘ri proporsional:

$$\vec{P} = \alpha \vec{E} \quad (17)$$

Bu dipol momenti ( $X, Y, Z$ ) o‘qlariga proeksiyalarini hisoblaymiz:

$$\begin{cases} P_x = \alpha_x E_x \\ P_y = \alpha_y E_y \\ P_z = \alpha_z E_z \end{cases} \quad (18)$$

Molekulaning to‘liq dipol momenti quyidagicha bo‘ladi:

$$P = P_x + P_y + P_z = \alpha_x E_x + \alpha_y E_y + \alpha_z E_z \quad (19)$$

Bundan:

$$P = (P_x q_x) + (P_y q_y) + (P_z q_z) = \alpha_x E_x q_x + \alpha_y E_y q_y + \alpha_z E_z q_z \quad (20)$$

(20) dan  $E_x, E_y, E_z$  larni qiymatini birlik vektori orqali aniqlab,  $\vec{q}$  vektorni proeksiyalarini, ya’ni tashkil etuvchilarini topib, hamda qutblanuchanlikni optic anizatropiya orqali ifodallab, statistik fizikaning ayrim qonunlarini hisobga olib, (20) ni kvadratini quyidagicha yozish mumkin:

$$(\vec{p}\vec{q})^2 = \left\{ \alpha^2 \cos^2 \theta + \left( \frac{1}{15} + \frac{1}{45} \cos^2 \theta \right) \gamma^2 \right\} \quad (21)$$

Agar sochilish hajmini  $V$  hajmda qarasak va (21) ni (16) ga olib borib qo‘ysak hamda


$$\omega = 2\pi\nu \quad \lambda = \frac{c}{\nu}$$

larni hisobga olsak, quyidagi hosil bo‘ladi:

$$J_{ah} = J_0 \frac{16\pi^4}{\lambda^4 r^2} NV \left\{ \alpha^2 \cos^2 \theta + \left( \frac{1}{15} + \frac{1}{45} \cos^2 \theta \right) \gamma^2 \right\} \quad (22)$$

Bu formula anizatrop fluktuatsiyasi natijasida sochilgan yorug‘lik intensivligini ifodalaydi.

Anizatrop fluktuatsiyasi deganda molekulalarni  $\alpha_x, \alpha_y, \alpha_z$  tashkil etuvchilarini o‘zgarib turishini tushunamiz; ya’ni:



$$\alpha_x \neq \alpha_y \neq \alpha_z$$


Umuman olganda sochilgan yorug‘lik ikki qismdan iborat bo‘ladi:

$$J = J_{u3} + J_{ah}$$

(22) ni ayrim xususiy hollarini ko‘rib chiqaylik:

1-hol. YOrug‘lik X o‘qi bo‘yicha tushsin va uning elektr vektorining tebranishi Z o‘qiga parallel bo‘lsin va shu bilan birgalikda bu vektor tebranishi  $OXY$  tekisligiga perpendikular bo‘lsin. Bunda  $\cos 90^\circ = 0$  bo‘lib, Bu holda (22) quyidagicha bo‘ladi:

$$J_{xy}^z = J_0 \frac{16\pi^4}{\lambda^4 r^2} NV \frac{1}{15} \gamma^2$$




(J) ning yuqoridagi (Z) tushayotgan yorug'likning elektr vektorinin tebranishi (Z) o'qiga parallelligini bildiradi. (XY) esa sochilgan yorug'lining elektr vektorining tebranish vektoriga parallelligini bildiradi.

2-hol: Polyarizator (P) ni  $90^0$  burchakka bursak,  $\vec{q} \perp \vec{E}$  bo'ladi va  $\theta=0$  bo'lib, sochilgan yorug'likning intensivligi komponenetasi quyidagicha aniqlanadi:

$$J_z^z = J_0 \frac{16\pi^4}{\lambda^4 r^2} NV \left\{ \alpha^2 + \left( \frac{1}{15} + \frac{1}{45} \right) \gamma^2 \right\} \quad (24)$$

3-hol: Faraz qilaylik, tushayotgan yorug'lik (Y) o'qi bo'yicha qutblangan bo'lsin, ya'ni uning elektr vektorining tebranishi (Y) o'qiga parallel bo'lsin. Bu holda  $\theta=90^0$  bo'lib:



$$J_{zx}^y = J_0 \frac{16\pi^4}{\lambda^4 r^2} NV \left( \frac{1}{15} \right) \gamma^2 \quad (25)$$

4-hol: 3-holda polyarizatorni  $90^0$  burchakka bursak, u holda  $\vec{q}$  birlik vektori Z o'qiga parallel bo'lib,  $\theta=90^0 - \varphi$  bo'ladi. Natijada sochilgan yorug'likning intensivligi:


$$J_{xy}^y = J_0 \frac{16\pi^4}{\lambda^4 r^2} NV \left\{ \alpha^2 \sin^2 \varphi + \left( \frac{1}{15} + \frac{1}{45} \sin^2 \varphi \right) \gamma^2 \right\} \quad (26)$$

YUqorida aytiganlardan ko'rindiki, yani 1,2,3 – hollarda sochilgan yorug'lik intensivligi burchakka bog'liq emas ekan. Bu hollarda sochilgan yorug'likning indekatrisasi simmetrik aylana shaklda bo'ladi.



4-holda esa sochilgan yorug'likning intensivligi burchakka bog'liq. SHuning uchun ham uning indekatrisasi quyidagicha bo'ladi:

Umuman olganda sochilgan yorug'likning depolyarizatsiya koeffitsienti deb quyidagi kattalikka aytildi:



$$\Delta = \frac{E_x^2}{E_y^2} = \frac{J_{\square}}{J_{\perp}} \quad (27)$$

Gazlarda sochilgan yorug'likning depolyarizatsiya koeffitsienti yuqorida aytilganlarga asosan quyidacha aniqlanadi:

$$\Delta_{eaz} = \frac{J_{xy}^z}{J_z^z} = \frac{\frac{1}{15} \gamma^2}{\alpha^2 + \frac{4}{45} \gamma^2} \quad (28)$$

$\Delta$  - sochilgan yorug'likning qancha qismi qutblanganligini bildiradi va  $\Delta \neq 0$  bo'ladi.

## MA'RUZA 9

### **Mavzu: Tabiiy (qutblanmagan) yorug'liklarni gazlarda sochilishi.**

YUqorida aytib o'tilganlarga asosan tushayotgan yorug'lik nuri qutblangan bo'lgan holda gazlarda sochilgan yorug'likning intensivligi quyidagi formula bilan aniqlanar edi:

$$J = J_0 \frac{16\pi^4}{\lambda^4 r^2} VN \left[ \alpha^2 \cos^2 \theta + \left( \frac{1}{15} + \frac{1}{45} \cos^2 \theta \right) \gamma^2 \right] \quad (1)$$

Tabiiy yorug'likning sochilishini o'rghanish vaqtida uni polyarizator yordamida hayolan ikki qismga ajratamiz. Birinchi qism tushayotgan yorug'likning elektr vektorining tebranishi  $\vec{E} \perp Z$  bo'lsin, bu holda


$$J^z = \frac{J_0}{2}$$

Ikkinci qismida esa  $\vec{E} \perp Y$  bo'lib, bu hol uchun

$$J^y = \frac{J_0}{2}$$

bo'ladi. Bu erda  $J_0$  - tushayotgan tabiiy yorug'lik intensivligi.


Faraz qilaylik, tabiiy yorug'lik nuri biror bir gaz tushib sochilayotgan bo'lsin, ya'ni:



Birinchi o'rinda  $J^z$  dan sochilayotgan yorug'likni qaraylik. Bu holda sochilgan yorug'likdan polyarizator yordamida  $J_z^z$  komponentani ajratib olamiz. Bu vaqtida  $\theta=0$  bo'ladi., chunki  $\theta \perp Z$  bo'ladi. SHuning uchun (1) ga asosan sochilgan yorug'likning intensivligi quyidagiga teng:

$$J_z^z = J_0 \frac{16\pi^4}{\lambda^4 r^2} VN \left[ \alpha^2 + \left( \frac{1}{15} + \frac{1}{45} \right) \gamma^2 \right] \quad (2)$$

Bu holni quyidagi rasmda ifodalash mumkin:



Endi polyarizatorni  $90^\circ$  burchakka bursak, natijada  $\theta=90^\circ$  bo'ladi. U holda (1) ni quyidagicha yozishimiz mumkin:

$$J_{xy}^z = \frac{1}{2} J_0 \frac{16\pi^4}{\lambda^4 r^2} V N \frac{1}{15} \gamma^2 \quad (3)$$

Tushuvchi nurning  $J^y$  komponentasida sochilgan yorug'likning intensivliklari quyidagicha bo'ladi. Bu holda  $\theta = 90^\circ$  bo'ladi:

$$J_z^y = \frac{1}{2} J_0 \frac{16\pi^4}{\lambda^4 r^2} V N \frac{1}{15} \gamma^2 \quad (4)$$

Polyarizatorni  $90^\circ$ ga bursak  $\theta = \varphi$  bo'ladi. SHuning uchun (1) ga asosan:

$$J_{xy}^y = \frac{J_0}{2} \frac{16\pi^4}{\lambda^4 r^2} V N \left[ \alpha^2 \cos^2 \varphi + \left( \frac{1}{15} + \frac{1}{45} \cos^2 \varphi \right) \gamma^2 \right] \quad (5)$$

Endi bu holda sochilgan yorug'likning depolyarizatsiya koeffitsientini aniqlaylik:

$$\Delta = \frac{J_\perp}{J_\perp} = \frac{J_{xy}^y + J_{xy}^z}{J_z^y + J_z^z} = \frac{\frac{6}{45} \gamma^2}{\alpha^2 + \frac{7}{45} \gamma^2} \quad (6)$$

Endi umumiy sochilgan yorug'likning intensivligini topsak, quyidagiga teng bo'ladi:

$$J = J_z^z + J_z^y + J_{xy}^z + J_{xy}^y = \frac{1}{2} J_0 \frac{16\pi^4}{\lambda^4 r^2} V N \left[ \alpha^2 + \frac{13}{45} \gamma^2 + (\alpha^2 + \frac{1}{45} \gamma^2) \cos^2 \varphi \right] \quad (7)$$

Agarda (7) formulada  $\varphi = 0$  bo'lsa, ya'ni sochilgan yorug'lik  $90^\circ$ burchak ostida kuzatilsa, u holda umumiy yorug'likning intensivligi quyidagiga teng bo'ladi:

$$J = \frac{1}{2} J_0 \frac{16\pi^4}{\lambda^4 r^2} V N \left( \alpha^2 + \frac{13}{45} \gamma^2 \right) \quad (8)$$

Bizga ma'lumki, Reley konstantasi:

$$R = \frac{J}{J_0} \frac{r^2}{V} \quad (9)$$

$R$  - muhitning yorug'lik sochish qobiliyatini xarakterlaydi.

(9) formulani (8) ga asosan yozsak:

$$R = \frac{8\pi^4}{\lambda^4} N \left( \alpha^2 + \frac{13}{45} \gamma^2 \right) \quad (10)$$

Gazlar uchun qutblanuvchanlik koeffitsienti quyidagicha bo'ladi:

$$\alpha = \frac{n-1}{2\pi N}$$

Bu holda esa, ya'ni tabiiy nur tushsa:

$$\alpha^2 = \frac{(n-1)^2}{4\pi^2 N^2} \quad (11)$$

bo'ladi. Agar gaz molekulalari izotrop bo'lsa:

$$R = \frac{8\pi^4}{\lambda^4} N \alpha^2 \quad (12)$$

(11) formulani hisobga olib (12) ni yozsak:

$$R = \frac{2\pi^2}{\lambda^4} \frac{(n-1)^2}{N} \quad (13)$$

Agarda gaz molekulalari anizotrop bo'lsa, u holda (13) formula quyidagiga teng bo'ladi:

$$R = \frac{2\pi^2}{\lambda^4} \frac{(n-1)^2}{N} \frac{6+\Delta 6}{6-\Delta 7} = \frac{2\pi^2}{\lambda^4} \frac{(n-1)^2}{N} f \quad (14)$$

$f$  - Kaban faktori deyiladi va u:

$$f = \frac{6+\Delta 6}{6-\Delta 7}$$

ga teng.

Gazlar uchun bu faktorning qiymati  $f \geq 1$  bo‘ladi. Bizga ma’lumki molekulaning qutblanuvchanligining o‘rtacha qiymati:

$$\alpha = \frac{\alpha_x + \alpha_y + \alpha_z}{3}$$

ga teng.

Anizotopiya darajasi esa:

$$\gamma^2 = \frac{1}{2} [(\alpha_x - \alpha_y)^2 + (\alpha_x - \alpha_z)^2 + (\alpha_y - \alpha_z)^2] \quad (16)$$

ga teng edi.

$\alpha_y = \alpha_z = 0$  bo‘lsa, u holda  $\gamma^2 = \alpha^2$  bo‘ladi.

Bu holda (15) ga asosan  $\alpha = \frac{\alpha_x}{3}$  bo‘lib, gazlarda yorug‘likning depolyarizatsiya koeffitsienti (6) ga asosan :

$$\Delta_{M ax} = \frac{\frac{6}{45} \alpha_x^2}{\frac{\alpha_x^2}{9} + \frac{7}{45} \alpha_x^2} = \frac{1}{2}$$

bo‘ladi.

## MA’RUZA 10

**Mavzu: Yorug‘likning sochilish konstantasi va xiralik koeffitsienti. Reley konstantasi yordamida Avogadro sonini aniqlash.**

Bizga ma’lumki, muhitning yoruglik sochilish qobiliyati ( $R$ ) orqali xarakterlanadi, ya’ni:

$$R = \frac{J}{J_0} \frac{r^2}{V} \quad (1)$$

Agarda muhit molekulalari izotrop bo‘lsa, u holda :

$$R = \frac{2\pi^2}{\lambda^4} \frac{(n-1)^2}{N} \quad (2)$$

Agarda anizotrop bo‘lsa:

$$R = \frac{2\pi^2}{\lambda^4} \frac{(n-1)^2}{N} f \quad (3)$$

bilan xarakterlanar edi. Boshqa tomondan esa gazlarda yorug‘likning sochilishi Reley formulasiga asosan:

$$J = J_0 \frac{4\pi^2(n-1)^2}{\lambda^4 r^2 N} V \sin^2 \Theta \quad (4)$$

Bu formula orqali faqat  $\frac{V}{\lambda^4 r^2 N}$  hajm tomonidan bir yo‘nalishda sochilayotgan yorug‘likning intensivligini aniqlash mumkin. SHuning uchun ham (4) dagi  $J = J_0$  deb olamiz.

Radiusi ( $r$ ) ga teng bo‘lgan sharni hamma tomonga sochayotgan yorug‘lik oqimi quyidagi formula bilan topiladi:

$$J = \iint J_\theta r^2 \sin \theta d\theta d\varphi \quad (5)$$

$J$  – hamma tomonga sochilgan yorug‘lik oqimi

(6) formuladagi  $\int_{\theta}$  ni qiymatini (4) ga asosan o‘rniga quyidagicha bo‘ladi:

$$J = J_0 \frac{4\pi^2}{\lambda^4 r^2} r^2 \frac{V}{N} (n-1)^2 \int_0^{2\pi} d\varphi \int_0^{2\pi} \sin^3 \theta d\theta = J_0 \frac{16\pi^2}{3\lambda^4} \frac{V}{N} (n-1)^2 \quad (6)$$

Bundan:

$$\frac{J}{J_0} = \frac{16\pi^2}{3\lambda^4} \frac{V}{N} (n-1)^2 \quad (7)$$

Faraz qilaylik kesim yuzasi  $S$  bo‘lgan silindrغا intensivligi  $J$  bo‘lgan yorug‘lik tushsin. Agar shu silindrni ma’lum  $dl$  qalinligidan yorug‘lik o‘tsa, yorug‘likning sochilishi tufayli uning intensivligi ma’lum qiymatga kamayadi. Bu intensivlikning kamayishi  $dl$  ga proporsional bo‘ladi:

$$-\frac{dJ_l}{J} = h dl \quad (8)$$

yoki integrallasak:

$$\int_{J_0}^J \frac{dJ_l}{J} = -h \int_0^l dl \quad (9)$$

$$J = J_0 e^{-hl} \quad (10)$$

$h$  – xiralik koeffitsienti.

Bu xiralik koeffitsientining ma’nosи shuki 1 sm qalinlikdagi muhitdan yorug‘lik o‘tganda uni qancha kuchsizlanganligini ko‘rsatadi. SHunga asosan:

$$h = \frac{J}{J_0} \quad (11)$$

(11) ni (7) ga asosan yozsak:


$$h = \frac{32\pi^2}{3\lambda^4} \frac{V}{N} (n-1)^2 \quad (12)$$

Bizga ma’lumki, yorug‘lik sochilganda bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan 2 ta yo‘nalish bo‘yicha qutblangandir. Bu sochilgan yorug‘likning elektr maydon kuchlanganlik

vektori  $e_x$  va  $e_z$  bilan xarakterlanadi. SHuning uchun ham (4) ni 2 yo‘nalish bo‘yicha birgalikda ifodalanishi uchun (12) ni chap tarafiga 2 ga ko‘paytirib yozdik.

### Reley konstantasi yordamida Avogadro sonini aniqlash

Reley konstantasini bilib Avogadro sonini aniqlash mumkin. Tajribada ( $R$ ) ni birinchi bo‘lib, fransuz olimi 1921-yilda Kaban o‘lchagan. U yorug‘lik manbai sifatida simob lampasidan tushayotgan  $\lambda = 4358 \text{ \AA}^0$  dan foydalanadi. Uning yorug‘lik kuchi 60 shamga teng. ( $R$ ) ni aniqlashda fotografik metoddan foydalangan. 1925-yilda ( $R$ ) ni yorug‘likning sochilish konstantasini aniqlashni Dor (fransuz olimi) bir mucha aniqroq o‘lchash metodini taklif qildi. U yorug‘likmanbai sifatida Quyosh nuridan foydalandi. Dor tajribasining sistemasi quyidagicha:



Ko‘rish maydoni quyidagicha bo‘ladi. Ko‘rish maydoning o‘rtasiga sochilgan yorug‘lik bilan yoritilgan bo‘lib, ikki cheti esa sochilmagan yoruglik bilan yoritilgan bo‘ladi. YA’ni  $L_1$  linza orqali o‘tayotgan yorug‘lik gazga (sochuvchi muhitga) tushadi. Muhit  $S$  gazdan sochilgan yorug‘lik  $L_2$  linza yordamida Lyummer kubogiga tushadi. Ikkinchchi tomondan  $A$  yorug‘lik manbaidan (bu ( $A$ ) manba to‘lqin uzunligi  $S$  muhitga tushuvchi yorug‘likning to‘lqin uzunligiga teng) chiqarayotgan yorug‘lik Lyummer kubogiga tushadi. Natijada sochilgan yorug‘lik bilan sochilmagan yorug‘likning intensivligilari solishtirish mumkin. Bu intensivliklarni tenglashtirish uchun ( $F$ ) Neytral filtri qo‘llaniladi. SHunday qilib, sochilgan yorug‘lik konstantasini topib Avogadro sonini aniqlash mumkin. YA’ni buni quyidagicha yozish mumkin:

$$R = \frac{b}{B \Omega} \quad (1)$$

Bu erda :

$B$  - tushayotgan yorug‘lik intensivligi

$b$  - sochilgan yorug‘lik intensivligi

$\Omega$  - yorug‘likni kuzatish gavdasi burchagi

Bizga ma’lumki, hajm birligidagi molekulalar soni :

$$N = \frac{\rho}{M} N_A \quad (2)$$

Ikkinchchi tomondan:

$$R = \frac{4\pi^2}{\lambda^4 N} (n-1)^2 \frac{6+6\Delta}{6-7\Delta} \quad (3)$$

Xuddi shuningdek  $P_0 V_0 = R' T_0$  bundan:

$$V_0 = \frac{R' T_0}{f_0} \quad (4)$$

$R' \rightarrow 2 \frac{\text{ккал}}{\text{моль}}$  - universal gaz doimiysi

$$V_0 = \frac{M}{\rho} \quad (5)$$

(2) formuladan:

$$\frac{N}{N_A} = \frac{\rho}{M} = \frac{1}{V_0} = \frac{P_0}{R' T_0} \quad (6)$$

Bundan

$$N = N_A \frac{P_0}{R' T_0} \quad (7)$$

(7) formulani (8) ga olib borib qo‘ysak:

$$R = \frac{4\pi^2}{\lambda^4} \frac{R' T_0}{N_A P_0} \frac{6+6\Delta}{6-7\Delta} (n-1)^2 \quad (8)$$


(8) formuladan Avogadro sonini  $N_A$  topish mumkin.

$$N_A = 6.5 \cdot 10^{23} \text{ ta}$$

## MA’RUZA 11

### Mavzu: Gazlarda sochilgan yorug‘likni depolyarizatsiya koeffitsientini o‘lchash va optik anizatropiyani aniqlash

YOrug‘likning sochilish naariyasiga asosan yorug‘lik sochuvchi jismlar uchun depolerizatsiya koeffitsienti nolga teng bo‘lishi kerak, ya’ni  $\Delta=0$ . Lekin tajribalar ko‘rsatadiki  $\Delta \neq 0$ . Faraz qilaylik yorug‘lik nuri ( $X$ ) o‘qi bo‘yicha tushayotgan bo‘lsin va yorug‘lik sochilishini ( $Y$ ) bo‘yicha kuzataylik.



( $E_z$  va  $E_x$ ) Bunday komponentalarni ya’ni ( $U$ ) o‘qi bo‘yicha sochilshini ko‘rmaslikka sabab, yorug‘lik to‘lqinlari ko‘ndalangligidir. Faraz qilaylik, yorug‘likning sochilish tekisligi  $XOY$  bo‘lsin. Ikkinchisi tomondan  $J = E^2$  shuning uchun

$$E_x^2 \approx E_{\parallel}^2 = J_{\parallel}$$

$$E_z^2 \approx E_{\perp}^2 = J_{\perp}$$

Bundan:

$$\Delta = \frac{J_{\parallel}}{J_{\perp}} \quad (1)$$

Agar yorug'likning qutblanish darajasini ( $\rho$ ) desak, u holda:


$$\rho = 1 - \Delta \quad (2)$$

bo'ladi.

Agar  $\Delta = 0$  bo'lsa,  $\rho = 1$  bo'lar edi, lekin tajriba bu nazariyani tasdiqlamadi. Bizga ma'lumki  $\Delta$  - sochilgan yorug'likning qancha qismi qutblanganligini bildiradi.

Bir xil modda uchun turli xil olimlar tomonidan topilgan depolerizatsiya koeffitsientining qiymati turli xil chiqdi. Bunga sabab yorug'likni sochuvchi muhitga nurlarini qanday burchak ostida tushishiga bog'liqdir.

Faraz qilaylik sochuvchi muhitga burchak  $L$  linzadan yorug'lik tushsin:



Agar  $\frac{D}{f} = \frac{1}{3}$  bo'lsa, u holda  $\operatorname{tg} \Omega = \frac{h}{r} = \frac{1}{6} \Omega$  (3) bo'ladi. Agar depolerizatsiya koeffitsientining haqiqiy qiymatini  $\Delta$  bilan, uning ko'rindigan qiymatini  $\Delta'$  bilan belgilasak, ular orasidagi bog'lanish mavjud:

$$\Delta = \Delta' - \frac{\Omega^2}{r} \quad (4)$$

Biz qarayotgan hol uchun :

$$\frac{\Omega^2}{r} = 0.014 \quad \text{ga teng.}$$

Depolerizatsiya koeffitsientining o'zgarishiga yana boshqa sabablar lyuminessensiya hodisasi hamda yorug'likning kombinatsion sochilshi va hakozo. Gazlarda suyuqliklardan depolerizatsiya koeffitsientini o'lchash prinsipi bir xil bo'lib, uni tuli xil metodlar yordamida amalga oshirish mumkin.


Metodlar:

1. Vizual
2. Fotografik
3. FotoElektrik

Vizual metodni qarab chiqamiz. Bu metodni sxemasi 1-rasmida ko'rsatilgan.

$N$  - polyarizator yordamida sochilgan yorug'lik tajribadagi  $J_{\parallel}$  va  $J_{\perp}$  qismlarni slohida ajratib olish mumkin. Keyin esa  $\Phi$  - filtr yordamida sochilmagan yorug'likning intensivliklarini susaytirib, sochilgan yorug'likning  $J_{\parallel}$  va  $J_{\perp}$

qismlari bilan solishtirib qancha katta yoki kichik ekanliklarini solishtirish mumkin.



Depolerizatsiya koeffitsientini bilib, optik anizatropiyani aniqlash mumkin. Bizga ma'lumki, gazlarda yorug'likning anizatrop sochilishida:

$$\Delta = \frac{\frac{6}{45} \gamma^2}{\alpha^2 + \frac{7}{45} \gamma^2} \quad (2)$$

Bundan:

$$\Delta = \frac{\Delta \alpha^2}{6 - 7\Delta} \quad (3)$$

Boshqa tarafdan:

$$\gamma^2 = \frac{1}{2} [(\alpha_1 - \alpha_2)^2 + (\alpha_1 - \alpha_3)^2 + (\alpha_2 - \alpha_3)^2] \quad (4)$$

$$\alpha = \frac{\alpha_1 + \alpha_2 + \alpha_3}{3} \quad (5)$$

Agar molekula aksial simmetriya o'qiga ega bo'lsa, bunday molekulalar uchun:

$$\alpha_1 \neq \alpha_2 = \alpha_3 \quad (6) \quad \text{bo'ladi.}$$

$$\left. \begin{array}{l} \alpha_1 = \alpha_{\parallel} \\ \alpha_2 = \alpha_3 = \alpha_{\perp} \end{array} \right\} \quad (7) \quad \text{deb belgilaymiz.}$$

(4) ga asosan. :

$$\gamma^2 = \frac{2}{2} (\alpha_{\parallel} - \alpha_{\perp})^2 \quad (8)$$

deb yozish mumkin yoki

$$\gamma = \alpha_{\parallel} - \alpha_{\perp} \quad (9)$$

bo'ladi. (5) ga asosan:

$$\alpha = \frac{\alpha_1 + \alpha_2 + \alpha_3}{3} = \frac{\alpha_{\parallel} + 2\alpha_{\perp}}{3} \quad (10)$$

$$3\alpha = \alpha_{\parallel} + 2\alpha_{\perp}$$

(9) dan  $\alpha_{\perp}$  ni topib (10) ga qo'ysak:

$$3\alpha = \alpha_{\parallel} + 2(-\gamma + \alpha_{\parallel}) = 3\alpha_{\parallel} - 2\gamma \quad (11)$$

$$\alpha_{\parallel} = \frac{3\alpha + 2\gamma}{3} \quad (12)$$

Xuddi shu yo'l bilan  $\alpha_{\perp}$  ni topish mumkin:

$$\alpha_{\perp} = \frac{3\alpha - 5\gamma}{3} \quad (13)$$

(12) va (13) ni qiymatini (9) ga qo‘ysak, optik anizatropiyani topish mumkin.

## MA’RUZA 12

### **Mavzu: Molekulyar suyuqliklarda yorug‘likning sochilishi. Eynshteyn-Smoluxovskiy formulasi va uning turli xil ko‘rinishlari.**

Suyuqliklarda yorug‘likning sochilish nazaruiyasini 1910-yilda eynshteyn birinchi bo‘lib yaratdi. U yorug‘likning sochilishiga asosiy sabab zichlik fluktuatsiyasi dedi.

Bizga ma’lumki, izotrop suyuqliklar yo‘q, chunki suyuqlik uchun  $\Delta \neq 0$  va o‘z holatida  $\gamma$  bilan  $\Delta$  bog‘langandir. Bizga ma’lumki, elementar hajmdagi molekulalarning dipol momenti:

$$P = \frac{\varepsilon' - 1}{4\pi} VE \quad (1)$$

ga teng. Bundan tashqari moddaning dielektrik doimiyligi fluktuatsiyaga ega, ya’ni:

$$\varepsilon' = \varepsilon + \Delta\varepsilon \quad (2)$$

(2) va (1) lardan quyidagini yozish mumkin:

$$P = \frac{\varepsilon - 1}{4\pi} VE + \frac{\Delta\varepsilon}{4\pi} VE \quad (3)$$

Suyuqlik molekulalari tomonidan tarqalayotgan ikkilamchi to‘lqinning elektromagnit maydon kuchlanganligi, bu holda quyidagiga teng bo‘ladi:

$$\xi = \frac{\varepsilon - 1}{4\pi} \frac{\omega^2}{c^2 r} VE \sin \theta + \frac{\Delta\varepsilon}{4\pi} \frac{\omega^2}{c^2 r} VE \sin \theta \quad (4)$$

Bu formulani birinchi qismi nolga teng, chunki bu qismda fluktuatsiya yo‘q. shuning uchun (4) ni quyidagicha yozish mumkin:

$$\xi = \frac{\Delta\varepsilon}{4\pi} \frac{\omega^2}{c^2 r} VE \sin \theta \quad (5)$$

Bizga ma’lumki:

$$\Delta\varepsilon = \frac{\partial\varepsilon}{\partial\rho} \Delta\rho \quad (6)$$

edi. Bundan foydalanib (5) ni yozsak:

$$\xi = \frac{\omega^2}{c^2 r} \frac{1}{4\pi} \frac{\partial\varepsilon}{\partial\rho} \Delta\rho VE \sin \theta \quad (7)$$

Sochilgan yorug‘likning intensivligini aniqlash uchun (7) ni ikkala tarafini kvadratga ko‘tarib, ularning o‘rtacha qiymatini olish kerak. Agar biz yorug‘likning sochilishini  $\sum v = V$  hajmda qaramoqchi bo‘lsak:

$$\bar{\xi}^2 = \left( \frac{1}{4\pi} \right)^2 \frac{\omega^4}{c^4 r^2} \left( \frac{\partial\varepsilon}{\partial\rho} \right)^2 \frac{1}{\Delta\rho^2} V^2 E^2 \sin^2 \theta \quad (8)$$

Bu tenglikka quyidagi o‘zgartirishlarni kiritamiz:

$$\omega = 2\pi\nu \quad \frac{v}{c} = \frac{1}{\lambda} \quad \xi^2 = J_{co4} \quad E^2 = J_0$$

Bu o'zgartirishlarni hisobga olib, quyidagilarni yozish mumkin:

$$J_{co4} = J_0 \frac{\pi^2}{\lambda^4 r^2} \left( \frac{\partial \varepsilon}{\partial \rho} \right)^2 V^2 \overline{\Delta \rho^2} \sin^2 \theta \quad (9)$$

Endi bu intensivlikni qiymatini toppish uchun  $\overline{\Delta \rho^2}$  ni hisoblash kerak. Bu quyidagicha hisoblanadi, bizga ma'lumki:

$$V = \frac{M}{\rho} \quad (10)$$

Ikkinchidan:

$$\frac{\Delta V}{\Delta \rho} = -\frac{M}{\rho^2} \quad (11)$$

Bundan:

$$\frac{\Delta \rho}{\Delta V} = -\frac{\rho^2}{M} \quad (12)$$

yoki

$$\Delta \rho = -\frac{\rho^2}{M} \Delta V \quad (13)$$

(13) ni kvadratga ko'tarib o'rtacha qiymatini olsak, quyidagiga teng bo'ladi:

$$\overline{\Delta \rho^2} = -\frac{\rho^4}{M^2} \overline{\Delta V^2} \quad (14)$$

Statistik fizikadan ma'lumki:

$$\overline{\Delta V^2} = -kT \left( \frac{\partial V}{\partial \rho} \right)_T \quad (15)$$

Bunga asosan (14) ni quyidagicha yozamiz:

$$\overline{\Delta \rho^2} = -kT \frac{\rho^4}{M^2} \left( \frac{\partial V}{\partial \rho} \right)_T \quad (16)$$

Ikkinchi tomondan:

$$\left( \frac{\partial V}{\partial \rho} \right)_T = -\frac{M}{\rho^2} \left( \frac{\partial \rho}{\partial P} \right)_T \quad (17)$$

(17) ni (16) ga qo'ysak:

$$\overline{\Delta \rho^2} = kT \frac{\rho^4}{M^2} \frac{M}{\rho^2} \left( \frac{\partial \rho}{\partial P} \right)_T = kT \frac{\rho^2}{M} \left( \frac{\partial \rho}{\partial P} \right)_T \quad (18)$$

(18) ga quyidagicha o'zgartirish kiritishimiz:

$$\frac{\rho^2}{M} = \frac{\rho \cdot \rho}{M} = \frac{\rho}{V}$$

U holda (18):

$$\overline{\Delta \rho^2} = kT \frac{\rho}{V} \left( \frac{\partial \rho}{\partial P} \right)_T \quad (19)$$

bo'ladi.

Bizga ma'lumki, suyuqliklarni izotermik siqiluvchanlik koeffitsienti:

$$\chi = \frac{1}{\rho} \left( \frac{\partial \rho}{\partial P} \right)_T = - \frac{1}{V} \left( \frac{\partial V}{\partial P} \right)_T \quad (20)$$

bo‘ladi.

Bundan:

$$\left( \frac{\partial \rho}{\partial P} \right)_T = \chi \rho \quad (21)$$

(21) ni hisobga olib (19) ni yozsak:

$$\overline{\Delta \rho^2} = \frac{kT\chi}{V} \quad (22)$$

(22) ni (9) ga qo‘ysak:

$$J_{cou} = J_0 \frac{\pi^2}{\lambda^4 r^2} \left( \rho \frac{\partial \varepsilon}{\partial \rho} \right)^2 kT \chi V \sin^2 \theta \quad (23)$$

Bu formulaga Eynshteyn-Smoluxovskiy formulasi deyiladi. Bu formulani chiqarishda tushuvchi yorug‘likni qutblangan deb qaradik. Agar biz bu formulada izotrop sochilishdan tashqari anizatrop sochilishini ham hisobga olsak, eynshteyn-Smoluxovskiy formulasini quyidagicha yozish mumkin. Agar  $\theta = 90^\circ$  bo‘lsa:

$$J_{cou} = J_0 \frac{\pi^2}{\lambda^4 r^2} \left( \rho \frac{\partial \varepsilon}{\partial \rho} \right)^2 kT \chi V \frac{6+6\Delta}{6-7\Delta} \quad (24)$$

Agar tushayotgan yorug‘lik tabiiy bo‘lsa, u holda (24) ni quyidagicha yozamiz:

$$J_{cou} = \frac{J_0}{2} \frac{\pi^2}{\lambda^4 r^2} \left( \rho \frac{\partial \varepsilon}{\partial \rho} \right)^2 kT \chi V \frac{6+6\Delta}{6-7\Delta} \quad (25)$$

### **Eynshteyn –Smoluxovskiy formulasining turli xil ko‘rinishlari**

#### **1. Gans ko‘rinishi.**

Bizga ma’lumki, Lorens-lorens formulasining ko‘rinishi quyidagicha edi:

$$\frac{n^2 - 1}{n^2 + 2} = \frac{4}{3} \pi N \alpha \quad (1)$$

yoki

$$\frac{n^2 - 1}{n^2 + 2} \frac{M}{\rho} = \frac{4}{3} \pi N_A \alpha \quad (2)$$

(2) ni quyidagicha ham yozish mumkin:

$$\frac{n^2 - 1}{n^2 + 2} = \frac{4}{3} \pi N_A \alpha \frac{\rho}{M} \quad (3)$$

Agar biz (3) formulani ( $\rho$ ) bo‘yicha differensiallasak quyidagi hosil bo‘ladi:

$$\frac{\frac{\partial n^2}{\partial \rho} (n^2 + 2) - \frac{\partial n^2}{\partial \rho} (n^2 - 1)}{(n^2 + 2)^2} = \frac{4}{3} \pi N_A \alpha \frac{1}{M} \quad (4)$$

(4) ni soddalashtirsak:

$$\frac{\frac{\partial n^2}{\partial \rho} n^2 + 2 \frac{\partial n^2}{\partial \rho} - n^2 \frac{\partial n^2}{\partial \rho} + \frac{\partial n^2}{\partial \rho}}{(n^2 + 2)^2} = \frac{4}{3} \pi N_A \alpha \frac{1}{M} \quad (5)$$

Demak:

$$\frac{3 \frac{\partial n^2}{\partial \rho}}{(n^2 + 2)^2} = \frac{4}{3} \pi N_A \alpha \frac{1}{M} \quad (6)$$

hosil bo'ladi. (6) ni ikkala tarafini ham ( $\rho$ ) ga ko'paytirsak:

$$\rho \frac{\partial n^2}{\partial \rho} = \frac{4}{9} \pi N_A \alpha \frac{\rho}{M} (n^2 + 2)^2 \quad (7)$$

(2) formulandan ( $\rho$ ) ni topsak, quyidagiga teng bo'ladi:

$$\rho = \frac{M \frac{n^2 - 1}{n^2 + 2}}{\frac{4}{3} \pi N_A \alpha} \quad (8)$$

(8) ni (7) ning o'ng tarafidagi  $\rho$  ning o'rniga olib borib qo'ysak, quyidagicha bo'ladi:

$$\rho \frac{\partial n^2}{\partial \rho} = \frac{4}{9} \pi N_A \alpha \frac{M(n^2 - 1)}{M(n^2 + 2)} \frac{3}{4 \pi N_A \alpha} (n^2 + 2)^2 \quad (9)$$

yoki

$$\rho \frac{\partial n^2}{\partial \rho} = \frac{1}{3} (n^2 - 1)(n^2 + 2)^2 \quad (10)$$

(10) dan  $n^2 = \varepsilon$  ekanligini hisobga olsak:

$$\rho \frac{\partial \varepsilon}{\partial \rho} = \frac{1}{3} (n^2 - 1)(n^2 + 2)^2 \quad (11)$$

bo'ladi. (11) ni Eynshteyn – Smoluxovskiy formulasiga qo'ysak va agar  $\theta = 90^\circ$  deb olsak, uning qiymati quyidagiga teng bo'ladi.

$$J_{co4} = J_0 \frac{\pi^2}{9 \lambda^4 r^2} (n^2 + 2)(n^2 - 1) kT \chi \quad (12)$$

Bu formulaga Gans formulasida tushayotgan nur tabiiy bo'lsa,  $J_0$  ni 2 ga bo'lish kerak. (12) dan ko'rindaniki Gans formulasida sochilgan yorug'likning intensivligi tajribadagi  $J_{co4}$  dan biroz kattaroq berar ekan.

## 2. Rokar formulasasi.

Rokar ko'rsatdiki Lorens-Lorens formularasi muhitni muvoznat holati uchun uning sindirish ko'rsatkichi bilan zichligi orasidagi bog'lanishni xarakterlaydi.

Lekin zichlik fluktuatsiyasi natijasida muhitning muvozanat holatdan chetlanadi va natijada Lorens-Lorens formularasi bajarilmasligi mumkin. Bizga ma'lumki elementar hajmdagi muddaning dipol momenti:

$$P = \frac{\varepsilon - 1}{4\pi} E \quad (1)$$

ga teng.

Agar bu  $V$  hajmdagi dipol momentini yozsak, u holda (1) quyidagiga teng bo'ladi.

$$PV = \frac{\varepsilon - 1}{4\pi} EV \quad (2)$$

Boshqa tomondan :

$$P = N\alpha E_{\phi\phi} = N\alpha \left(\frac{\varepsilon+2}{3}\right) E \quad (3)$$

Bu (3) formulamiz  $V$  hajmdagi  $N$  ta molekulaning dipol momentini xarakterlaydi. (2) va (3) ga asosan quyidagini yozish mumkin:

$$PV = N\alpha E_{\phi\phi} V = N\alpha \left(\frac{\varepsilon+2}{3}\right) EV \quad (4)$$

Endi (2) va (4) formulalarni o‘rtacha qiymatdan chetlanishini yozsak yoki boshqacha aytganda ularni orttirmalarini yozsak quyidagicha bo‘ladi:

$$\Delta(PV) = \frac{\Delta\varepsilon}{4\pi} VE \quad (5)$$

$$\Delta(PV) = \Delta N \alpha \left(\frac{\varepsilon+2}{3}\right) VE \quad (6)$$

Bulardan:

$$\frac{\Delta\varepsilon}{4\pi} VE = \Delta N \alpha \left(\frac{\varepsilon+2}{3}\right) VE \quad (6')$$

$$\frac{\Delta\varepsilon}{4\pi} = \Delta N \alpha \frac{\varepsilon+2}{3}$$

yoki

$$\frac{\Delta\varepsilon}{\Delta N} = \frac{4}{3} \pi \alpha (\varepsilon + 2) \quad (7)$$

Bizga ma’lumki:

$$\frac{\Delta N}{N} = \frac{\Delta\rho}{\rho} \quad (8)$$

Bundan:

$$\Delta N = N \frac{\Delta\rho}{\rho} \quad (9)$$

(9) ni (7) ga qo‘ysak:

$$\frac{\Delta\varepsilon}{N \frac{\Delta\rho}{\rho}} = \frac{4}{3} \pi \alpha (\varepsilon + 2) \quad (10)$$

Bundan:

$$\frac{\Delta\varepsilon}{\frac{\Delta\rho}{\rho}} = \frac{4}{3} \pi \alpha N (\varepsilon + 2) \quad (11)$$

(11) ning o‘ng tomonini Klauzius – Mosotti tenglamasini beradi. SHunga asosan:

$$\frac{\varepsilon-1}{\varepsilon+2} = \frac{4}{3} \pi N \alpha$$

O‘rniga qo‘ysak:

$$\rho \frac{\Delta\varepsilon}{\Delta\rho} = \frac{\varepsilon-1}{\varepsilon+2} (\varepsilon + 2) = \varepsilon - 1 \quad (12)$$

hosil bo‘ladi.  $n^2 = \varepsilon$  ekanligini e’tiborga olsak:

$$\rho \frac{\Delta \varepsilon}{\Delta \rho} = n^2 - 1 \quad (13)$$

hosil bo'ladi. (13) ni Eynshteyn – Smoluxovskiy formulasiga olib borib qo'ysak, quyidagi hosil bo'ladi:

$$J = \frac{J_0}{2} \frac{\pi^2}{\lambda^4 r^2} (n^2 - 1)^2 kT \chi V \quad (14)$$

Bu formulaga Rokar formularasi deyiladi. Romanatan ham xuddi Rokar qanday fikrga kelgan bo'lsa, shunday fikrga keldi. Lekin u ko'rsatdiki eng avval Lorens-Lorens formulasidan foydalanmasdan, balki quyidagi ko'rinishga ega bo'lgan Laplas tenglamasidan ham foydalanish mumkin deydi. YA'ni:

$$\varepsilon - 1 = \rho = \text{const}$$

Bunga sabab shuki ( $\varepsilon + 2$ ) kattalik biz qarayotgan molekulani o'rab olgan muhitning mavjudligidan kelib chiqadi. Bu makroskopik muhitning xususiyati hajmning biror elementda fluktuatsiyasining bo'lishi bilan o'zgarmaydi. SHuning uchun ham Romanaton formularasi ham Rokar formulariga mos tushadi. Bizga ma'lumki, Reley konstanatasi quyidagicha topilar edi:

$$R = \frac{J}{J_0} \frac{r^2}{V} \quad (16)$$

Bu formulani Gans va Rokar formulararning hisobga olib yozsak, quyidagi ko'rinishga ega bo'lamiz:

$$R = \frac{\pi^2}{2\lambda^4} (n^2 - 1)^2 \left( \frac{n^2 + 2}{3} \right)^2 kT \chi \sin^2 \theta \quad (17)$$

(17) – Gans ko'rinishi

$$R = \frac{\pi^2}{2\lambda^4} (n^2 - 1)^2 kT \chi \sin^2 \theta \quad (18)$$

(18) – Rokar ko'rinishi

YOrug'lik sochilishining doimiysi, ya'ni (17) va (18) formulalar umumiyl holda ikki qismdan iborat bo'ladi, ya'ni:

$$R = R_{u3} + R_{ah} \quad (19)$$

Nazariya ko'rsatdiki :

$$\begin{cases} J_{\square} = \frac{6}{13} J_{ah} \\ J_{\perp} = J_{u3} + \frac{7}{13} J_{ah} \end{cases} \quad (20)$$

(19) va (20) ni hisobga olib yozsak:

$$R = R_{u3} \frac{6 + 6\Delta}{6 - 7\Delta}, \quad \Delta = \frac{J_{\square}}{J_{\perp}} \quad (21)$$

Agar anizatrop sochilishni nazarga olsak Eynshteyn – Smoluxovskiy formularasi quyidagicha bo'ladi:

$$R = \frac{\pi^2}{2\lambda^4} \left( \rho \frac{\partial \varepsilon}{\partial \rho} \right)^2 kT \chi \frac{6 + 6\Delta}{6 - 7\Delta} \quad (22)$$

Bu formulaga Eynshteyn – Kaban formulasi deyiladi. YOrug‘likning anizatrop sochilishi bilan izotrop sochilishi orasida bog‘lanish bor:

$$J_{an} = J_{us} \frac{13\Delta}{6-7\Delta} \quad (23)$$

### MA’RUZA 13

#### **Mavzu: Yorug‘likni suyuqliklarda anizatrop sochilishi va effektiv optik anizatropiya**

YOrug‘likning anizatropiya sochilishi ko‘pgina suyuqliklarda umumiyligini sochilgan yorug‘likni katta qismini tashkil etadi. Biz bilamizki umumiyligini sochilish yorug‘likning konstantasi quyidagiga teng edi:

$$R = R_{us} + R_{ah}$$

Suyuqliklarda anizatrop sochilish xuddi gazlarda o‘xshaydi. SHuning uchun suyuqliklarda anizatrop sochilgan yorug‘likning intensivligini xuddi gazlarda topgandek topamiz, ya’ni:

$$J = J_{xy}^z + J_z^z + J_{xy}^y + J_z^y \quad (1)$$

Faraz qilaylik, tushuvchi yorug‘lik tabiiy nur bo‘lsin. U holda:

$$\begin{cases} J^z = \frac{J_0}{2} \\ J^y = \frac{J_0}{2} \end{cases}$$

bularni hisobga olib (1) ni xuddi gazlarda yozsak:

$$J = \frac{J_0}{2} \frac{16\pi^4}{\lambda^4 r^2} NV \left\{ \frac{1}{15} \gamma^2 + \left[ \alpha^2 \cos^2 \varphi + \left( \frac{1}{15} + \frac{1}{45} \cos^2 \varphi \right) \gamma^2 \right] + \frac{1}{15} \gamma^2 + \left[ \alpha^2 \cos^2 \varphi + \left( \frac{1}{15} + \frac{1}{45} \cos^2 \varphi \right) \gamma^2 \right] \right\} \quad (2)$$

Agar sochilish burchagini qiymati  $90^\circ$  ga, ya’ni  $\varphi = 90^\circ$  bo‘lsa:

$$J = J_0 \frac{8\pi^4}{\lambda^4 r^2} NV (\alpha^2 + \frac{3}{45} \gamma^2) \quad (3)$$

bo‘ladi. (3) ni quyidagicha ham yozish mumkin:

$$J = J_0 \frac{8\pi^4}{\lambda^4 r^2} NV \alpha^2 + J_0 \frac{8\pi^4}{\lambda^4 r^2} NV \frac{3}{45} \gamma^2 \quad (4)$$

Bu holda depolyarizatsiya koeffitsienti:

$$\Delta = \frac{\frac{3}{45} \gamma^2}{\alpha^2 + \frac{4}{45} \gamma^2} \quad (5)$$

Bu formula tushayotgan yorug'lik qutblangan bo'lsa o'rnlidir. Demak, yuqoridagilarga asosan gazlarda anizatrop sochilgan yorug'likning intensivligi quyidagi teng bo'ladi:

$$J_{ah}^{eas} = J_0 \frac{8\pi^4}{\lambda^4 r^2} NV \frac{13}{45} \gamma_{eas}^2 \quad (6)$$

Romanatan nazariyasi ko'rsatdiki, suyuqlik molekulalariga ta'sir etuvchi effektiv maydon quyidagi teng:

$$E_{\phi\phi} = \left(\frac{\varepsilon+2}{3}\right) E \quad (7)$$

Suyuqliklarning anizatrop sochilishini aniqlash uchun (7) ni hisobga olib yozsak, (6) ga asosan quyidagini yozish mumkin:

$$J_{ah}^{cyok} = E^2 \frac{8\pi^4}{\lambda^4 r^2} NV \frac{13}{45} \gamma_{\phi\phi}^2 \quad (8)$$

yoki

$$J_{ah}^{cyok} = E^2 \frac{8\pi^4}{\lambda^4 r^2} \left(\frac{\varepsilon+2}{3}\right)^2 NV \frac{13}{45} \gamma_{\phi\phi}^2 \quad (9)$$

Bundan:

$$J_{ah}^{cyok} = E^2 \frac{8\pi^4}{\lambda^4 r^2} \left(\frac{n^2+2}{3}\right)^2 NV \frac{3}{45} \gamma_{\phi\phi}^2 \quad (10)$$


(10) ga suyuqliklarda anizatrop sochilishning intensivligini aniqlovchi Romanatan formulasi deyiladi. (6) formuladagi  $\gamma_{eas}^2$  bilan  $\gamma_{\phi\phi}^2$  bir-biridan farq qiladi. Amalda esa bu kattaliklar mos tushishi kerak, chunki modda gazdan suyuqlikka o'tganda molekula qutblanuvchanlik koeffitsienti  $\alpha$  sezilarli darajada o'zgarmaydi. Lekin tajriba ko'rsatdiki gazdan suyuqlikka o'tganda  $\gamma^2$  ning qiymati biroz farz qiladi. Bunga sabab, suyuqlikda yaqin orientatsion tartib mavjudligidadir. Bularni hisobga olib suyuqliklarda sochilishi doimiysi ( $R$ ) ni quyidagicha yozamiz:

$$R_{ah.}^{cyok.} = \frac{8\pi^4}{\lambda^4} \frac{13}{45} \left(\frac{n^2+2}{3}\right)^2 N \gamma_{\phi\phi}^2 \quad (12)$$

## MA'RUZA 14

### Mavzu: Suyuqliklarda sochilgan yorug'lik intensivligi va depolyarizatsiya koeffitsientini o'lhash.

Suyuqliklarda sochilgan yorug'likning intensivligi va depolyarizatsiya koeffitsientini o'lhash uchun quyidagi asbobdan foydalilanadi:




Dastlab benzol moddasi solingan Vud trubkasini termostatga joylashtirib ( $N$ ) polyarizatori yordamida sochilgan yorug'likning tarkibidagi  $J_{\parallel}$  qismini ajratib olamiz va bu intensivlikning qiymatini  $20^{\circ}\text{C}$  da 1 ga teng deb olamiz. YA'ni sochilgan va sochilmagan intensivliklarni tenglashtirgandan keyin.

Keyin xuddi shu usulda boshqa moddalarni ham vud trubkasiga joylashtirib undan ham sochilgan yorug'likning  $J_{\parallel}$  va  $J_{\perp}$  larni ajratib olinadi.

Hamma suyuqliklar uchun  $J_{\parallel}$  va  $J_{\perp}$  lar benzolga nisbatan o'chanadi. Tajriba ko'rsatadiki, suyuqliklardagi zichlik fluktuatsiyasi va anizatrop fluktuatsiyasi natijasida sochilgan yorug'lik intensivliklari temperaturaning o'zgarishi bilan har xil o'zgarar ekan. Bizga ma'lumki:

$$\begin{cases} J_{\parallel} = \frac{6}{13} J_{an} \\ J_{\perp} = J_{us} + \frac{7}{13} J_{an} \end{cases} \quad (1)$$

$$\Delta = \frac{J_{\parallel}}{J_{\perp}} \quad (2)$$



Quyidagi grafiklarda ayrim moddalarning izotrop va anizatrop sochilgan yorug'likning intensivligini temperaturaga bog'liqligi keltirilgan:

Quyidagi jadvalda ayrim moddalar uchun sochilgan yorug'likning intensivligi va depolyarizatsiya koeffitsientlari keltirilgan:

Suyuqliklar	$J_{\parallel}$	$J_{\perp}$	$\Delta$	$J_{us}$	$J_{an}$
Benzol	1.0	2.98	0.44	1.12	2.17
Xlor benzol	1.92	3.2	0.60	0.92	4.16
Nitro benzol	5.00	6.95	0.72	1.10	10.82

### MA'RUZA 15

**Mavzu: Suyuqliklarda yorug'likning sochilishidagi tajriba natijalarini nazariya bilan solishtirish.**

Bizga ma'lumki, agar suyuqliklarda izotermik siqiluvchanlik koeffitsienti ( $\chi$ ) ning qiymati temperatura oshishi bilan oshadi. Natijada (1), (2), (3) formuladagi ( $R$ ) ning qiymati o'zgaradi. Quyidagi jadvalda normal Pentan uchun ( $\chi$ ) ni temperaturaning o'zgarishi bilan o'zgarishi keltirilgan.

$t^0C$	$\Delta$	$\chi \cdot 10^4 cm^{-1}$	$J_t / J_{30^0}$	tajriba	$J_t / J_{30^0}$ nazariy
30	0.072	235	1	1	1
60	0.071	437	1.76	1.76	1.76
120	0.050	1120	3.36	3.67	3.67
180	0.016	9060	18	19.9	19.9

Suyuqliklarda  $R$  ni birinchi bo'lib, 1931-yilda Peyro aniq o'lchadi. Keyinchalik esa 1943-yilda bu kattalikni juda katta aniqlikda Vakuler turli xil to'lqin uzunlikdagi yorug'lik uchun o'lchadi. Quyidagi jadvalda bu kattaliklarni benzol va efir uchun qiymatlari keltirilgan.

Suyuqlik	$R \cdot 10^6 cm^{-1}$ $\lambda = 4358 A^0$	$R \cdot 10^6 cm^{-1}$ $\lambda = 5460 A^0$	$R \cdot 10^6 cm^{-1}$ $\lambda = 5480 A^0$
Benzol	31.8	11.8	8.7
Efir	10.1	4.1	3.1

Jadvaldan ko'rindaniki, to'lqin uzunligini oshishi bilan  $R$  ning qiymati kamayadi, chunki oldingi darslarda ko'rib o'tgan edikki  $R$  to'lqin uzunligiga teskari proporsional edi. Tekshirishlar shuni ko'rsatdiki tajriba yo'li bilan topilgan  $R$  ning qiymati nazariy yo'l bilan topilgan  $R$  ning qiymatidan farq qiladi. Quyidagi jadvalda tajriba yo'li bilan topilgan  $R$  ning qiymati bilan Rokar va Gans formulalari orqali topilgan  $R$  ning qiymatlari taqqoslashtirilgan:

Suyuqliklar	$R \cdot 10^6 cm^{-1}$ Tajriba	$R \cdot 10^6 cm^{-1}$ Rokar	$R \cdot 10^6 cm^{-1}$ Gans
Etil spirit	6.3	5.2	8.6
Geksan	9.9	8.0	13.6
Efir	10.1	8.7	14.6
Benzol	31.8	25.1	51.9
Toluol	34.7	27.4	55.8

Jadvaldan ko'rindaniki, tajriba bilan nazariy ravishda topilgan  $R$  larning orasidagi farq mavjud ekan bunga asosiy sabab  $R$  ni hisoblash formulasiga kiruvchi  $\rho \frac{\partial \varepsilon}{\partial \rho}$  kattalikni aniqlash bilan bog'langandir. Bu kattalikni topishda ayrim olimlarimiz, jumladan Rokar va Krishnalar statik metoddan foydalansa, ayrimlari Matulevich hamda Fabelinskiylar bu kattaliklarni topishda boshqa metod, ya'ni dinamik metoddan foydalanadi.

## MA'RUZA 16

### Mavzu: Yorug'likning eritmalarda sochilishi

Bizga ma'lumki, suyuqliklarda yorug'lik zichlik fluktuatsiyasi va anizatrop fluktuatsiyalari natijasida sochilar edi. Toza suyuqlik uchun zichlik fluktuatsiyasi bilan dielektrik doimiyligining fluktuatsiyasi quyidagi bog'lanishga ega edi:

$$\Delta \varepsilon = \frac{\partial \varepsilon}{\partial \rho} \Delta \rho \quad (1)$$

Endi bu eritmalarda yorug'likning sochilishini ko'rib chiqaylik. Faraz qilaylik, eritmaning tarkibidagi eruvchi modal zarrachalari tushayotgan yorug'likning to'lqin uzunligidan kichik bo'lsin. Bunday zarrachalarda yorug'likning sochilish nazariyasi va anizatrop fluktuatsiyadan tashqari konsentratsiya fluktuatsiyasi orqali amalga oshadi. Biz qarayotgan eritma gazdan shunisi bilan farq qiladiki, uning sindirish ko'rsatkichi  $n_0$  bo'lgan muhit ichiga joylashtirilgan.

Agar eritma konsentratsiyasini  $C$  desak, u holda:

$$\Delta \varepsilon = \frac{\partial \varepsilon}{\partial C} \Delta C \quad (2)$$

bo'ladi. Bizga ma'lumki yorug'lik gazlarda sochilganda, sochilish doimiysi quyidagiga teng bo'lar edi:

$$R_{eas} = \frac{4\pi^2}{\lambda^4} (n^2 - 1) \frac{1}{N} \quad (3)$$

Agar tushuvchi nur tabiiy bo'lsa:

$$R_{eas} = \frac{2\pi^2}{\lambda^4} (n^2 - 1) \frac{1}{N} \quad (4)$$

Eritmaning xiralik koeffitsienti  $R$  bilan quyidagicha bog'lanishga ega:

$$h = \frac{16}{3} \pi R$$

Umuman olganda xiralik koeffitsienti ikki qismdan iborat, ya'ni:

$$h = h_\rho + h_c \quad (5)$$

Bu erda :

$$h_\rho = \frac{8\pi^3}{3\lambda^4} kT \chi (\rho \frac{\partial \varepsilon}{\partial \rho})^2 \quad (6)$$

Bizga ma'lumki:

$$\chi = \frac{1}{V} \left( \frac{\partial V}{\partial P} \right)_T = \frac{1}{\rho} \left( \frac{\partial \rho}{\partial P} \right)_T \quad (7)$$

(7) ni (6) ga olib borib qo'ysak:

$$h_\rho = \frac{8\pi^3}{3\lambda^4} kT \left( \rho \frac{\partial \rho}{\partial P} \right) \left( \frac{\partial \varepsilon}{\partial \rho} \right)^2 \quad (8)$$

Eritmalarda  $J \approx \overline{\Delta C^2}$  bo'ladi. Xuddi (8) tenglikdagidek:

$$h_\rho = \frac{8\pi^3}{3\lambda^4} kT \left( \frac{\left( C \frac{\partial \varepsilon}{\partial C} \right)^2}{C \frac{\partial C}{\partial P}} \right) \quad (9)$$

### **3. GLOSSARY**

## MOLEKULYAR OPTIKADAN GLOSSARIYA

**AJRATA OLISH QOBILIYATI**-optik tizimning buyumning bir-biriga yaqin ikki nuqtasini ayrim-ayrim tasvirlay olish qobiliyatini tavsiflovchi kattalik; ajrata olish limitiga teskari kattalik.

**AJRATILISH CHEGARASI**-optik tizim buyumning ayrim-ayrim tasvirlab beradigan ikki nuqtasi orasidagi eng kichik masofasi; burchak yoki chizig‘iy o‘lchovlarda ifodalananadi.

**AYLANTIRISH QOBILIYATI**-yorug‘lik qutblanish tekisligi burilish burchagining yorug‘lik optik faol muhitda o‘tgan yo‘lga nisbati.

**AMETROPIYA**-akkomodatsiya (moslashuv) bo‘lmaganda ko‘zning orqa fokusi to‘rparda bilan mos kelmasligidan iborat ko‘zning kamchiligi.

**APODIZATSIYA**-optik tizim ustidagi yorug‘lanuvchi nuqtaning difraksiyaviy manzarasiga jadallik taqsimlanishi o‘zgarishiga olib keluvchi o‘zgartirishlar.

**ATMOSFERA OPTIKASI**-Yer va sayyoralar atmosferasidagi ultrabinafsha, ko‘rinadigan va infraqizil nurlanishdagi sochilish, yutilish, sinish, qaytish va difraksiyani o‘rganishga bag‘ishlangan atmosfera fizikasi bo‘limi

**BIR JINSLI MUHIT**-muayyan fizikaviy xossalari koordinatalarga bog‘liq bo‘lмаган muhit.

**BIRLAMCHI NURLANISH**-qaralayotgan o‘zaro ta’sir jarayonida birlamchi bo‘lgan yoki dastlabki deb olinadigan nurlanish.

**BRYUSTER BURCHAGI**-dielektrik sirtidan qaytuvchi yorug‘likning to‘la qutblanadigan tushish burchagi.

**DASTA**-yorug‘likni qutblash uchun ishlatiladigan shaffof yassi plastinkalar to‘plami; 2-yorug‘lik yoki nur to‘plami.

**DIFRAKSIYA SPEKTRI** - difraksiya panjarasi yordamida hosil qilingan spektr

**DOIRA BO‘YICHA**


**QUTBLANGAN YORUG‘LIK**-fazoning har bir nuqtasida yorug‘lik tebranishlar takroriyligiga teng takroriylikda -E- tekis aylanuvchi, uchi esa aylana chizuvchi yorug‘lik.

**ELASTIK SOCHILISH**- 1) yorug‘lik foton takroriyligining o‘zgarmasdan sochilishi; 2) mikrozarralar ichki holatlarining o‘zgarmasdan sochilishi.

**FLUKTUATSIYA**-lotincha *fluctuatio-tebranish*-fizik kattalik qiyomatining o‘z o‘rtacha qiyamatidan tasodifiy chetlanishlari.

**FOTOPLASTINKA**-reaksiyasi plastinka yoki parda sirtiga surtilgan kumush goloidi yoki boshqa sezgir moddaning fotokimyoiy parchalanishida namoyon bo‘ladigan nurlanish qabul qilgichi.

**IKKI FOTONLI NURLANISH**-nurlanuvchi tizimning bitta kvant o‘tishida ikki fotonning nurlanish jarayoni.




